

جدید

2025-yil 11-iyul
№ 28 (80)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ TO'RT YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Dunyodagi har bir davlatning milliy suvereniteti va mustaqilligi shu mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, o'z xalqining tinch va farovon hayotini, uning eng muhim manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladigan mustahkam siyosiy-ijtimoiy zamin va kuch-qudrat manbaidir.

Hech shubhasiz, 1991-yil 31-avgustda mard va oliyanob xalqimizning xohish-irodasi va azm-u qarori bilan qo'lga kiritilgan milliy istiqlolimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi barcha islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi tarixiy sharoitda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafolatlarni o'zida mujassam etgan holda, "O'zbekiston – 2030" strategiyamizni amalga oshirish, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mintaqamizda yaxshi qo'shnichilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining ana shunday ulkan ahamiyatini inobatga olib, milliy istiqlolimizning o'ttiz to'rt

yillik shonli sanasini Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak sa'yiyada nishonlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan **"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!"** degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirlarining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Respublika komissiyasi) tuzilsin hamda uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika komissiyasi (A.Aripov):
a) O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayrami (keyingi o'rinlarda – Mustaqillik bayrami) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta'minlash uchun

Konsepsiyaning asosiy ma'no-mazmuni va yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlar dasturlarining ishlab chiqilishi va bajarilishini ta'minlasin;

b) joylarda Mustaqillik bayramining yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash borasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, umumxalq sayillari, madaniyat va sport tadbirlarini samarali o'tkazish maqsadida taniqli ilm-fan namoyandalari, ijodkorlar, madaniyat va san'at arboblari, sportchilar, jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etsin hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit yaratib bersin;

v) mazkur yo'nalishda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini Respublika komissiyasi yig'ilishlarida muntazam ravishda eshitib borsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat va tajribaga ega bo'lgan ssenarist va rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, bastakor va baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh

ijrochilar, maqom va baxshichilik san'ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.

5. Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilsin:

a) Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha sakkiz yil oldin boshlagan keng ko'lamli islohotlarimiz tufayli jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy manzarasi butunlay o'zgarib borayotgani;

b) qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o'sib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmi tarixda birinchi marta 110 milliard AQSH dollaridan oshgani, "yashil" va innovatsion iqtisodiyotga o'tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo'yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani;

v) yangilangan Konstitutsiyamizda belgilanganidek, O'zbekiston to'бора inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ulug'lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, bandlikni ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotgani;

(Davomi 2-sahifada).

YANGI O'ZBEKISTONga xos yangicha muhtasham "DEVON"

Kitobda shoirning roppa-rosa 50 yil davomida bitgan she'rlaridan boy namunalari jamlangan. Muhimi, el-yurtimiz tarixi, qismati, dardini kuylashni o'zi uchun farz va qarzdab bilgan hassos shoir Sirojiddin Sayyidning ona xalqimiz og'ir, sinovli kunlarda chekkan zahmat-u mehnatlariga, anduh va iztiroblariga hammad bo'lib yozgan o'tli nazm namunalaridan toki yangi zamon ruhi keng ko'lamda o'z ifodasini topgan manzumalariga cha – sara asarlari ham yagona muqova qatida o'z mujassamini topibdi.



(3-sahifada o'qing).

EKSPEDITSIYA

BOBOLAR IZIDAN OZARBAYJONGA...

O'tgan yili O'rxun-Enasoy bitiklari, qadimgi turkiy manzilgohlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Oltoy tog' tizmalari bo'ylab "Bobolar izidan..." borgan ilmiy-ijodiy ekspeditsiya bu safar Ozarbayjonga yo'l olganidan xabaringiz bor.

O'zbekistonlik taniqli olimlar, yozuvchi-shoirlar, san'atkor va jurnalistlardan iborat guruh ekspeditsiyani, eng avvalo, Boku shahrida joylashgan Alisher Navoiy haykalini ziyorat qilishdan boshladi.

Buyuk mutafakkir xotirasiga hurmat bajo keltirildi. Uning boy ilmiy-ma'naviy merosi yodga olindi, dostonlaridan parchalar o'qildi.



Xalqaro Yevroosiyo Matbuot Fondi prezidenti Umid Mirzayev ijodiy-ilmiy guruhning Ozarbayjondagi chin jonkuyari, yo'lbo'shchisi o'laroq bizni diqqatga sazovor manzillar bilan tanishtirib bordi. Avvali, ozarbayjonlik mashhur satirik shoir, ma'rifatchi jadid Mirza Alakbar Sobir haykali va bog'i bilan tanishtirdi. So'ngra yo'nalishni bog' yonidagi muhtasham bino tomonga burdi. U yerda bizni Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi prezidenti Shp Habibbeyli samimiy qarshi oldi. U kishi akademiyaning asosiy faoliyati, ilmiy yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

E'tiborlisi, mazkur bino – Ismailiyya saroyi 1908–1913-yillarda mashhur ozarbayjonlik neft magnati Musa Naghiyev homiyligi asosida (uning 20 yoshida vafot etgan o'g'li xotirasiga atab) bunyod etilgan ekan.

(Davomi 3-sahifada).

TIBBIYOT

JIGARLARIMIZDAN JIGARIMIZNI AYAMAYLIK

Inson hayoti davomiyligi va salomatligi uchun eng muhim a'zolardan biri jigardir. U hech qachon og'riq bermaydi. Chunki jigarda nerv tolalari yo'q. Afsuski, ana shu "beozor"lik ko'pincha qimmatga tushadi. Jigar kasalliklarining eng og'ir turlarida ham inson o'zida xastalik kechayotganini sezmay qolishi mumkin. Ko'p hollarda bu so'nggi chora – boshqa organizmdan jigar ko'chirish amaliyotini o'tkazishga olib keladi.



Yaqin-yaqingacha bizda bu amaliyot qo'llanilmagan. Keyingi yillarda tibbiyot sohasida yuz bergan o'zgarishlar, izchil islohotlar, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlar o'z natijasini berib, O'zbekistonda ham tana a'zolari transplantatsiyasi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Bu borada poytaxtimizdagi Milliy tibbiyot markazida bir qancha muvaffaqiyatli qadamlar ham tashlandi.

Davlat rahbari tashabbusi bilan 2024-yilda tashkil etilgan shifo maskanida xalqaro tajribaga ega shifokorlar, malakali mutaxassislar faoliyat yuritmoqda.

Markazda joriy yil boshidan 60 ta jigar, 200 ga yaqin buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilgan. Xususan, Hindistonning "Shinon" kompaniyasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan yirik jarrohlik amaliyoti markaz nufuzini yanada oshirdi. Bir vaqtning o'zida olti kishi

operatsiya stoliga yotqizilib, uchta jigar muvaffaqiyatli transplantatsiya qilindi. Ayni paytda bemorlarning ahvoli yaxshi, donorlar esa allaqachon ijtimoiy faoliyatini davom ettirmoqda.

– Aholimizning har bir dardiga o'zimizda davo topsak deymiz, – so'z boshladi markaz direktori Maqsd Saidov. – O'tgan yili hindistonlik taniqli transplantolog Vivek Vij 214 nafar o'zbekistonlikni operatsiya qilish uchun yurtiga olib ketdi. Har bir bemor 32 ming dollardan to'lov qilgan. Buncha mablag'ni topish oson emas: borniki botmon bilan, yo'qniki esa... uy sotish, qarz-havola bilan. Xuddi shu amaliyot o'zimizda yo'lga qo'yilgan edi-ku. Sharoitimiz ham Yevropa yo boshqa Osiyo davlatlaridagi klinikalardan kam emas.

(Davomi 2-sahifada).

AN'ANALAR ETADI DAVOM...



"...Biz Zomin yoshlari kelgusida hayot va ijodda ulkan muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonamiz. Zero, ularga shaxsan Davlat rahbarining o'zi "Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatani adabiyotiga Jizzax diyoridan qo'yayotgan qadamlari qutlug'i bo'lsin!", deya ezgu tilaklarini bildirgan edi. Seminar shioriga aylangan bu so'zlar zamirida esa davlatning adabiyot va adabiyot ahliga, kitobxonlikka berayotgan bemis e'tibori va g'amxo'rliги mujassam..."

(4-5-sahifalarda o'qing).



Nu'monjon G'afforiy,
tarix fanlari doktori, professor
(Tojikiston Respublikasi):

– Xo'jandlik Said Boboxon Ahroriy Turkiston jadidlari sarvari bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiyning shogirdlari va tarafdorlaridan qiridir. U kishi 1910-yilda Xistevarz qishlog'i va yon-atrofdagi hudud bolalari uchun yangi usul maktabini ochadi.

BEHBUDIYNING XO'JANDLIK MUHIBLARI

Ta'lim muassasasining ilk o'quvchilaridan biri bobom Abdug'affor Hasanov bo'lgan. Ahroriy domla vafotidan oldin bobomga "Oyina" jurnalining 68 ta sonini ishonib topshiradi. Ushbu taxlam hozirgacha oilamizning eng qimmatbaho boyligi sifatida e'zozda. Otam, tarixshunos olim Usmonjon G'afforov ham ilmiy izlanishlarida ulardan unumli foydalangan.

Men Behbudiyga ixlosi cheksiz bo'lgan ana shunday oilada o'sib-ulg'aydim. Bu ixlos, hatto, qonimizda bor, desam mubolag'a bo'lmas. Bobom tez-tez kaminani yoniga chaqirib, ustozidan eshitgan xotiralarni aytib berar, ular

orasida albatta, Behbudiyning nuri siymosi porlab turardi.

Ulg'ayar ekanman, bobom va otamdan eshitganlarim meni ilm yo'lga boshladi. O'lis va mashaqqatli safarda esa Hazrat yodi mayoq kabi porlab turdi. Behbudiyning siyosiy va jamoatchilik faoliyati haqidagi ilk risolam 1997-yili Dushanbeda chop etildi. Shundan so'ng nomzodlik, keyinroq doktorlik ishini himoya qildim. Har ikkisida ham Mahmudxo'ja Behbudiy va "Oyina" jurnali asosiy suyanchim bo'ldi.

(Davomi 6-sahifada).



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ TO‘RT YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

g) ta'lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko'rmagan o'zgarishlarga olib kelayotgani, maktabgacha ta'lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan hozirgi paytda 77 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo'lgani;

d) sog'liqni saqlash, ilm-fan, IT, madaniyat, adabiyot va san'at sohalarini rivojiga ham katta e'tibor berilayotgani, Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o'n beshtalikdan joy olgani, futbol bo'yicha 17 yoshgacha o'smirlar jamoamiz, shuningdek, milliy terma jamoamiz O'zbekiston tarixida birinchi marta jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani;

y) **“Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari”** degan shior ostida navqiron avlodimizning zamonaviy bilim va kasbhunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT

texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarishlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban o'g'il-qizlarimiz turli sohalarda dastlabki quvonchli yutuqlarga erishayotganlari;

j) keyingi yillarda shahar va qishloqlarimiz jadal sur'atlar bilan obod bo'lib borayotgani, **“Yangi O'zbekiston”** uy-joy mavzalarini barpo etish, **“Obod qishloq”, “Obod mahalla”** dasturlari doirasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, smart va innovatsion shaharsozlik asosida yangi shaharlar barpo etilib, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlantirilayotgani;

z) ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti – bizning bebaho boyligimiz ekani, uni asrab-avaylash va mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz bo'lib qolishi zarurligi;

i) **“Armiya va xalq – bir tan-u bir jondir!”** degan shior asosida Qurolli

Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, mard va jasur askar va ofitserlarimizning jismoniy, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar amalga oshirilayotgani;

k) O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o'rni va nufuzi ortib, yangi bosqichga ko'tarilayotgani;

l) Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro'-e'tibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgani.

6. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov):

a) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirining dasturi va ssenariysini Konsepsiya asosida ishlab chiqsin hamda uni yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralari o'tkazsin;

b) Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda **“Ona diyor – ranglar jilosida”**, **“Vatan uchun yashaylik!”**, **“Eng ulug', eng aziz”** kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlarni yuqori darajada o'tkazishni ta'minlasin;

v) Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda yurtimiz istiqloqlini tarannum etadigan **eng yaxshi qo'shiq va musiqa asarlari** tanlovlarining yakuniy bosqichini o'tkazsin;

g) mazkur tanlovlarning g'olib va sovrindorlarini Mustaqillik bayrami arafasida e'lon qilish va tantanali ravishda taqdirlash choralari o'tkazsin.

7. Belgilab qo'yilsinki, o'tkaziladigan bayram tadbirlari:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda – tegishli mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriylik asosidagi homiylik xayriyalari hisobidan;

b) Toshkent shahrida – Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan

xarajatlar smetasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va Toshkent shahar mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan teng ulushlarda moliyalashtiriladi.

8. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, **“Dunyo”** axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abdurahmonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2025-yil 10-iyul

JIGARLARIMIZDAN JIGARIMIZNI AYAMAYLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Shunda angladikki, odamlar bilan ishlashimiz, ularning xabardorligini oshirishimiz, mahoratimizga ishonтира olishimiz kerak ekan.

Bir ma'lumot aytay, keyingi yillarda tirik donordan buyrakni muvaffaqiyatli transplantatsiya qilish bo'yicha ham O'zbekiston yaxshi ko'rsatkichlar qayd etdi. Nimaning hisobiga? Kadrlarimiz xorijda malaka oshirib, tajriba o'rtirib qaytmoqda. Moddiy-texnik bazamiz mustahkamlanmoqda. Ayni sohaga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilgan.

Markazimizda inson a'zolari transplantatsiyasi “Transplantologiya va angioxirurgiya” hamda “Endovizual (abdominal va torakal) xirurgiya” bo'limlarida amalga oshiriladi. Bu bo'limlarda bemorlar uchun 31 ta palatada 62 ta yotoq (koyka) joylashtirilgan. Har ikki bo'limga o'n nafardan transplantolog, gepatolog, nefrolog, shuningdek, jarroh va anesteziologlar birlashtirilgan.

Tibbiyot fanlari doktori, professor A'zam Bobojonov, tibbiyot fanlari nomzodi Elyor Turg'unboyev kabi o'z ishiga usta, mohir ustozlar bilan birga Sardor Qalandarov, Ikrom Turg'unov, Anastasiya Romanova, Sarvar Sharifjonov, Shohjahon Matkarimov kabi yosh shifokorlar yuzlab bemorlar hayotini saqlab qolishdek ezgu vazifani siddiqildan bajarmoqda.

Milliy tibbiyot markazi matbuot kotibi Zulayho Musurmonova bizni jarayon bilan yaqindan tanishtirdi:

– Jigar transplantatsiyasida shifokorlarimiz ikki guruhga bo'linib ishlaydi. Sakiz nafar jarroh, ikki anesteziolog, 4 nafar hamshira ishtirok etadi. Ikki xonadagi jarrohlik stoliga ikki kishi bir paytda yotqiziladi. Biridan jigar bo'lagi olinadi va ikkinchisiga qo'yiladi. Bunday jiddiy jarrohlik amaliyotlari kamida 8-10 soat davom etadi. Shifokorlar tajribasi ortib borgan sari operatsiyalar davomiyligi qisqarib bormoqda.

Markazimizda bir bemorga to'rt qayta buyrak o'tkazildi. Hozir u tuzalib ketgan, o'qituvchilik qilyapti. Bir-ikki yil oldin yigirmata nina yutgan bola ulardan xalos bo'lgach, nogiron bo'lib qolgandi. U ham pay transplantatsiyasini o'tkazdi. O'zbekistonda birinchi marta epilepsiya kasalligi bor bemor shu yerda sun'iy intellekt yordamida operatsiya qilindi. Shartnoma asosida ishlayotgan eronlik yosh ortoped-

jarroh Roshan Asfar esa hayratlanarli amaliyotlarni bajarmoqda. Natijada, hayotdan umidini uzgan o'nlab yurtidoshlarimizga qaytadan yashash baxti taqdim etilyapti. Mana shu mo'jizani ko'rganingizda transplantologiyaniing naqadar muhim va kerakli soha ekaniga iqror bo'lasiz.

Markaz rahbariyati bizni transplantatsiyasi jarayonini bevosita kuzatishga taklif qildi. Bu yerda sensorli qo'l yuvish moslamalaridan tortib, anesteziya uskunalarini va

qarindoshlar qarori bilan hal bo'ladi. Balki biz ham xalqimizni bunga bosqichma-bosqich tayyorlashimiz kerak bo'lar. Muhimi, bir insonning hayoti saqlab qolinadi.

Markaz hayotga qaytargan bemorlardan biri bilan telefon orqali bog'landik. Suhbatdoshimiz O'tkir Komilov jigar sirrozi tashxisini eshitgach, kasal holiga sarson bo'lib chet elma-chet el yurmadi. O'zimizning shifokorlarga ishonadi. Qolganini o'zidan eshitamiz:



operatsion bloklargacha – hamma-hammasi jahon standartlariga javob berishi qayd etildi.

– O'n ikki yildan buyon shu sohadaman, – deydi Transplantologiya va angioxirurgiya bo'limi mudiri Ahror Safarov. – Jarayonda har xil holatlar bo'lib turadi. Ba'zan donor topa olmay qolamiz. Bu holatda qo'limizdan hech narsa kelmaydi.

Jigar transplantatsiyasi ikki usulda olib boriladi: tirik va o'lik tanadan sog'lom a'zo olish. Biz faqat birinchi usuldan foydalanamiz. Jahon tajribasida esa ikkinchi usul ham qabul qilingan. Agar bizda ham vafot etgan insondan jigar olish imkonini bo'lganida, qanchadan qancha bemorlar yashab ketgan bo'lardi. Qachondir bu usulni ham qabul qilsak kerak, deb o'ylayman. Bu holat shundayki, oldingda ikki odam bor. Biri hozirgina hayot bilan vidolashgan. Ikkinchi bir inson esa jon talashyapti. O'sha birgina bo'lak bilan ko'zing oldida hayotdan ko'z yumishi muqarrar bo'lib turgan bemor yana yashashda davom etishi mumkin. Bu esa har ikki bemorga tegishli o'zaro

– To'rt oy bo'ldi Milliy tibbiyot markazida jigar qo'ydirganimga. Operatsiyadan chiqqanimda 66 kilogramm edim, hozir 78 kilogramm bo'ldim. Ahvolim yaxshi. Menga jigar bergan singlim ham sog' va omon. Markazning bemorlar uchun ochilgan telegram guruhiga a'zoman. Bu yerda bemorlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar berib boriladi. Doimiy ichiladigan ikki turdagi preparatlarimizni bepul yetkazib berishadi. Bemorlarning kasallik davriga oid elektron qo'llanmalar yaratishgan. Bu ham shu telegram kanalida qo'yib boriladi. Unda har bir bemorga tegishli barcha ma'lumot bo'ladi. Shifokor almashib qolgan taqdirda ham keyingi shifokor shu qo'llanma asosida bizning davolanish jarayonimizni nazoratga oladi.

Darhaqiqat, kerakli dori vositalarining o'z vaqtida yetkazib berilishi mamlakatimizda qat'iy nazoratga olingan va bemorlarning davolanishlari uchun yetarli darajada dori zaxiralari shakllantirilgan. Buyrak va jigar ko'chirib o'tkazilgan 1 ming 500 nafardan ortiq bemorlar davlat reestr



ro'yxatiga olingan. Shu ro'yxat asosida ikki turdagi immunosuppressiv dorilar bepul berib borilmoqda. Bemor bu dorilarni umr bo'yi ichib borishi kerak.

Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish joizki, retsipientning barcha tibbiy tekshiruv, muolaja va jarrohlik amaliyoti uchun xarajatlari davlat sug'urta kompaniyasining gardanida. Har bir jigar transplantatsiyasiga muhtoj bemor uchun 150 milliondan 200 million so'mgacha pul mablag'i davlat tomonidan ajratiladi. Faqat donorning tashxis natijalari, qon va boshqa tahlillari hamda amaliyotga ketadigan xarajatni o'zi to'laydi. Bu harajat miqdori 40-50 million so'm atrofida bo'ladi. Xorijga borib jigar qo'ydirish uchun esa eng kamida yana o'n barobar ko'p pul sarflanadi.

Tibbiyotning kun sayin emas, soat sayin rivojlanib borayotgani, bemorlar tuzalayotgani quvonarli holat. Ammo kasallikning oldini olish eng ma'qul yo'ldir. Xo'sh, jigar og'rimasa, uning kasalligini qanday bilamiz? Qanday holatda u transplantologiyaga muhtoj bo'ladi?

Doimiy charchoq, qorinning kattalashishi, qorin bo'shlig'ining terisida qon tomirlarining ko'rinish qolishi, ko'z va terining sarg'ayishi, bel sohasida terining qichishishi, og'izda achchiq ta'mni his qilish, badandagi ko'karishlar, qon tomirlarining mo'rt bo'lib qolishi kabi belgilar jigarida muammo borligini ko'rsatuvchi simptomlardir. Uning transplantologiyaga muhtoj yoki yo'qligi tibbiy tahlillar orqali aniqlanadi.

Jigar tana a'zolari ichida eng faoli hisoblanadi. Uning noyob xususiyati shundaki, inson tana a'zolari ichida birgina jigar qaytadan o'zini o'zi tiklay oladi, juda tez sog'lom va to'laqonli a'zoga aylanaveradi va sharoit yaratilsa, u uch yuz yilgacha faoliyatda bo'lishi mumkin. Bu ham bir mo'jiza. Donor kimgadir jigar berib, kamayib qolmaydi. Bugungi kunda respublikamizda yigirma mingdan ziyod bemorning hepatit C, hepatit B, jigar gipatozi (yog' bosishi) tufayli jigar ko'chirish amaliyotiga ehtiyoji borligini hisobga olsak, bir insonga jigar berish orqali hech narsa yo'qotmasligimizni tushunaylik, ya'ni zarur bo'lsa, jigarlarimizdan jigarimizni ayamaylik. Zero, bir odamni o'limdan saqlab qolish eng oljanob tole!

Muhayyo RUSTAMOVA

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM

“O‘Z YURTIDA ONA TILIN UNUTGANLAR...”

Svetlana KIM:

– Men O'zbekistonda tug'ilib-o'sdim. Yurtimni juda yaxshi ko'raman. Kimyogarman. Moskvada o'qir ekanmiz, kursdoshlarim o'sha yerda qolishga yoki yaxshi yo'llanma olishga intilishardi. Menga Belorusdagi yirik kimyo zavodiga yo'llanma berishdi, ammo undan voz kechdim. Chunki uyga – O'zbekistonga qaytishni istadim. Rosti, boshqa joyda yashashni tasavvur qilolmayman. Toshkentga qaytib, ishga joylashdim.

Millatim koreys, rus tilida ta'lim olganman. O'zbekistonda yashaganim bois o'zbek tilini mukammal o'rganish istagi bolaligidan yuqori bo'lgan. Aslida, o'zbek tilini bilish – bu zarurat, fuqarolik burchidir.

O'zbekchani yanada yaxshi o'rganish uchun til kurslari bilan qiziqdim. Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida boshqa millat vakillariga o'zbekcha o'rgatadigan kurs borligidan xabar topdim. Birinchi darsdan keyin guruhlariga bo'landik. Bizning 17 kishilik guruhimizga pedagog Azizbek Berdiyev dars bera boshladi. Chet tilini o'rganayotgan kishi uchun o'qituvchining o'rni beqiyos. Muvaffaqiyatning yarmi, hatto undan ham ko'prog'i o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Jiddiyroq shug'ullanib, o'zbekcha o'qish va yozishni ham o'zlashtirib olmoqchiman. Darslarga qatnay boshlaganimdan beri ko'shnilarim bilan yanada osonroq muloqot qilyapman. Mendan ko'ra ko'proq ular quvonganini ko'rib, ishtiyoqim yanada oshmoqda.

Otam uzoq yillar o'zbeklar bilan birga ishlagan. U ham o'zbek tilini yaxshi biladi. Otam hayotiy haqiqatga asoslangan bir mulohazani tez-tez takrorlab turadi: “...1937-yilda deportatsiya qilingan biz koreyslar aynan o'zbek xalqining saxovati tufayli omon qolib, begona yurtida ham o'z milliyligimizni saqlab qololdik”. Biz buni doim yodda saqlaymiz. Butun umr o'zbek xalqining naqadar mehmondo'st, mehribon, bag'rikeng ekanini e'tirof etishdan charchamaymiz.

O'zbek tilini o'rgana boshlagach, atrofmidagilarning menga hurmati yanada oshganini yaqqol his qila boshladim. Hozir lotin alifbosisidagi o'zbek yozuvini o'rganayotganimiz sababli qo'shnilarim bilan “SMS”lashganda lotincha yozaman.



To'g'ri, hozircha xabarlarim qisqa jumalardan iborat, lekin mehribon qo'shnilarim harakatimni-da astoydil qo'llab-quvvatlashmoqda.

Tajribadan ma'lumki, til o'rganish uchun ikki muhim jihat sabab bo'larkan: istak va ehtiyoj. Kimdir karyera yoki boshqa sababdan til o'rganishni shart deb bilsa, bu – majburiyat. Ammo istak, bu – butunlay boshqa narsa. Bu tilga bo'lgan muhabbat, til orqali madaniyatga chuqurroq kirish imkoniyati.

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazidagi sharoitlar alohida mavzu. Darslarda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalaniladi. Shuningdek, dastur ham juda yaxshi. Tilni o'zlashtirishda dastur juda katta rol o'ynaydi. Shunday sharoitda o'zbek tilini o'rganayotganimdan juda mamnunman.

Bir mulohazamni aytib o'tmoqchiman. Hozir ayrim o'zbeklar ham o'z tilini qo'yib boshqaga gaplashadi. Hatto, oilada ham boshqa tilga muloqot qilishlari meni hamisha hayron qoldirgan. Xuddi shuning aksi bo'lgan yana bir holat esa meni doim quvontirgan. Ya'ni, boshqa millat vakillarining o'zbek tilini juda yaxshi bilishiga guvoh bo'lganman. Yaqinda internet tarmoqlarida yapon yigitning davlat tilida gapirgan videosini ko'rdim. Uning gaplari juda bama'ni, qo'shiqdek eshitiladi.

Nar qanday xalq madaniyatida eng muhim qadriyat – tildir. Musiqa, raqs yo boshqasi emas, aynan til. Chunki u milliylikni, o'zlikni belgilab beradigan eng asosiy omil.

O'zimni “o'zbek koreysiman” deb hisoblayman. Mening baxtim shunda!

Dilmurod DO'STBEKOV yozib oldi.



MUTOLAA

YANGI O‘ZBEKISTONga xos yangicha muhtasham “DEVON”

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Yarim asr devoni” nomli bir jildlik salmoqli kitobi yaqinda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida yuksak did va nafosat bilan nashr etildi.

KITOBNING NOMLANISHI HAQIDA

Kitobda shoirning roppa-rosa 50 yil davomida bitgan she’rlaridan boy namunalar jamlangan. Muhimi, el-yurtimiz tarixi, qismati dardini kuylashni o’zi uchun farz va qarz deb bilgan hassos shoir Sirojiddin Sayyidning ona xalqimiz og’ir, sinovli kunlarda chekkan zahmat-u mehnatlariga, anduh va iztiroblariga hamdard bo’lib yozgan o’tli nazm namunalaridan toki yangi zamon ruhi keng ko’lamda o’z ifodasini topgan manzumalarigacha – sara asarlari ham yagona muqova qatida o’z mujassamini topibdi. Bu, albatta, g’oyat manzur ijodiy yondashuv va har tomonlama maqbul yechim.

Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub “Devon”da she’rlar xronologik tartibda joylashtirilgan va bu muhim jihat bizga Alisher Navoiy hazratlarining “Chor devon”iga tartib berishini eslatadi.

Kitobning muxtasar kirish so’zida qayd etilganidek, “Ko’hna Sharqda “Devon” tuzishning qat’iy mezonlari va mukammal qoidalari bo’lgan. “Devon sohibi” degan nomga sazovorlik shoir ijodiy salohiyatini belgilovchi munosib rutbalardan sanalgan. Bugun yangi zamonda yashaymiz. Tabiiyki, bizning davrimizda “Devon” tuzishda mumtoz she’riyatimizdagi kabi arab alifbosiga qat’iy rioya qilingan talablarni qo’yib bo’lmaydi”.

“DEVON” TUZISHNING YANGI MEZONLARI

Bugungi davr shoiri oldiga “Devon” aruz vaznidagi she’rlardan tarkib topishi va unga arab alifbosi asosida tartib berilishi kerak, degan an’anaviy talabni qo’ya olmasligimiz tabiiy hol. Chunki, birinchidan, zamonaviy o’zbek she’riyatida aruz vazni ustuvorlik qilmasligi, ikkinchidan, arab alifbosidan anchayin uzoqlashib ketganimiz tufayli bunday yondashuv hozirgi davr “talablari”ga javob bermaydi.

Buning o’rniga, fikrimizcha, “XXI asr

shoiri “Devon” tuzish an’anasini qanday novatorlik yondashuvlari bilan boyitdi?” degan mantiqan asosli savolga javob izlagan ma’qul. Shu nuqtayi nazardan:

birinchidan, “Yarim asr devoni” faqat aruzdagi nazm namunalaridangina iborat emas va ayni shu voqelikning o’zi “Devon” tuzish an’anasini yangi davr bilan chambarchas bog’lab turibdi. Yangicha “Devon”dan barmoq vaznida bitilgan lirik va publiksistik she’rlar, so’z mulkining barhayot darg’alari lirik asarlariga tazmin va tatabbular ham o’rin olgan;

ikkinchidan, Sirojiddin Sayyid o’z “Devon”iga turli yillarda bitilgan dostonlar va dostonlardan parchalarni ham kiritganki, bunga qadar “Devon” tuzish an’anasida bunday yondashuv kuzatilmagan;

uchinchidan, “Yarim asr devoni” sahifalarida Loyiq Sherali, Andrey Voznesenskiy kabi shoirlar she’rlarining Sirojiddin Sayyid tarjimasidagi o’zbekcha matnlarini mazza qilib o’qish mumkin. “Devon” tuzish an’anasida tarjima asarlarni berish tajribasi ham uchramaydi.

Biz, albatta, O’rta asrlarga xos “Devon” tuzish an’ansi mezonlari haqida fikr yurityapmiz. XX asrda ushbu an’ana Habi-biy, Chustiy, Sobir Abdulla kabi “Devon” tuzgan shoirlarimiz tomonidan yangilangan. Ularning “Devon”larida g’azallar hozirgi o’zbek alifbosi tartibida joylashtirilgan.

“DEVON”NING TARKIBI: FASLLAR TALQINI

“Yarim asr devoni” bir necha fasldan tashkil topgan. Xususan, “Mening eng munavvar, go’zal tonglarim” fasli – 1974–1983-yillarga oid she’rlarni o’zida qamragan.

Bu fasl, umuman, “Devon”ning o’zi ham ilk havaskorona bitiklardan boshlanadi. Dastlabki she’r 1974-yilga mansub. U “Vatan mehri” deya nomlangan bo’lib, mana bu ko’tarinki misralar bilan yakunlangan:

**Yolg’iz istak qalbdan hukmron,
Vatan mehri tark etmasa bas.**



Muqoyasa uchun “Devon”ning yakuniy faslidagi 2024-yilda bitilgan “Vatan bag’rida bo’l bedor” sarlavhali she’rdan bir band keltiramiz:

**Qolib ketguvchilar bisyor,
nolib ketguvchilar bisyor,
Ulardan bo’lmagil zinhor,
Vatan hech qayga ketgan yo’q.**

Har ikki she’rda ham Vatanga mehr va sadoqat tuyg’ulari tarannum etilgan. Ammo ilk bitik bilan bugungi nazmiy nafas oralig’ida ellik yilda yuz bergan yer-u osmon qadar farqni – ijodiy yuksalishni osongina ilg’ash mumkin.

Ushbu fasldan joy olgan she’rlar yosh Sirojiddinning shoir sifatida izchil shakllanishi bosqichlarini namoyon etchi. Uning birinchi she’ri “Orzu” sarlavhasi ostida 1975-yilda chop etilgan bo’lsa, ilk she’riy to’plami “Ruhim xaritasi” nomi bilan 1985-yilda nashrdan chiqqan.

Keyingi fasl – “Onajon, bu olam bunchalar cheksiz!” deb nomlangan bo’lib, 1984–1991-yillardagi she’rlarni o’z ichiga oladi. Bu davrga kelib Sirojiddin Sayyid she’riyat shaydolariga yaxshigina tanish bo’lib ulgurandi. Chunki uning “Salqin xarsanglar kaftida”, “Sevgi mamlakati”, “Asragil” kabi she’riy kitoblari ketma-ket

nashr etilgan va muxlislar e’tirofiga sazovor bo’lgandi. Bu fasldagi sof lirik tuyg’ular ifodalangan yetuk she’rlar “Devon”ga o’zga-cha ruh bag’ishlab turibdi.

Ayni fasl o’zida qamragan yetti yillik ijodiy davrning yana bir o’ziga xos samarasi – 1990-yili hassos rus shoiri Andrey Voznesenskiy qalamiga mansub turkum she’rlar, dostonlar va nasriy asarlar Sirojiddin Sayyid tarjimasida – “Mangu rizq” nomli kitob shaklida nashr etilganidir. Natijada, yurtimiz kitobxonlari jahon she’riyatida yorqin iz qoldirgan Andrey Voznesenskiy fenomenini uning o’zbek tiliga o’girilgan asarlari orqali kashf etdilar.

Navbatdagi fasl “Yaxshilik eskirmagay” deb atalgan va 1992-1993-yillardagi she’rlarni o’zida mujassam etgan. Atigi ikki yillik ijodiy faoliyatga bag’ishlangan ayni davr ham barakali bo’lganini qayd etish lozim. Muhimi, shu yillarda shoir o’zining mashhur “Qirq hadis” turkum she’rlarini va “Falak aylanadi” nomli to’rtliklar jamlanmasini yozdi.

Yana bir fasl – “Vatan desam ko’zimda yosh, yuzimda yosh” – 1994–2003-yillarga mansub she’rlardan iborat. Bu fasldagi she’rlar shoirning ilgari nashr etilgan “Kuydim”, “Uyingdagi beshiklar”, “Vatanni o’rganish”, “Egasi bor yurt”, “Vatan abadiy”, “Ustimizdan o’tgan oylar” kabi she’riy kitoblari orqali muxislarga yaxshi tanish.

O’z navbatida, “Sen – mangu xalq-dirsan, rizq-ro’zi halol” degan faslda 2004–2013-yillarda bitilgan she’rlar jamlangan. Bu davrda shoirning “Ko’ksimdagi zangorlarim”, “Ko’ngil sohili”, “Qaldirg’ochlarga ber ayvonlaringni”, “Dil fasli”, “Yashasin yomg’irlar” kabi she’riy to’plamlari, “So’z yo’li” nomli ikki jildlik tanlangan asarlari, “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...” dostoni va o’zida she’rlar, badiiy-publiksistik maqolalar, suhbatlar va badialarni jamlagan “Bug’doybo’y Vatan” kitobi muxlislar qo’liga yetib bordi.

Nihoyat “Millat baxtin so’rar millat otasi” faslidagi she’rlar 2014-2024-yillarga mansubdir. Ana shu o’n yillik ijodiy yuksalish davrida shoirning qariyb 20 ta kitobi nashrdan chiqdi.

Shuningdek, 2018-2019-yillarda Sirojiddin Sayyidning to’rt jildlik “Asarlar” to’plami hamda she’rlar, dostonlar va tarjimalar, suhbat hamda maqolalardan iborat “Ochil, ey gul, ki bo’ston vaqti bo’ldi” va boshqa kitoblari nashr etildi.

Aslida ham, “Yarim asr devoni” – tom

ma’nodagi Xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning ellik yillik hayrat va muhabbat yo’li. Shu ma’noda, bir tomondan, ayni muhtasham “Devon” shoirming Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz oldidagi o’ziga xos ijodiy sarhisobi bo’lsa, ikkinchi tomondan, adabiyot va ma’rifat ahliga munosib nazmiy tuhfası hamdir.

YANGI O‘ZBEKISTON SHARAFLANGAN SHE’RIYAT

Asrlar mobaynida ajdodlarimiz she’riyatni nafaqat so’zdan badiiy zavq olish manbayi, balki turli bilimlarni odamlar ong-u shuuriga eng maqbul tarzda yetkazishning qulay vositasi ham, deb bilganlar. Jumladan, olis asrlarda Abu Ali ibn Sino hazratlari xastaliklardan saqlanish va ularni davolash yo’llari, turli malham-u giyohlarning shifobaxsh xususiyatlarini she’riy uslubda bayon etganlar. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg’oni, Zangi ota Himmatiy singari aziz-avliyolarimiz muqaddas dinimiz arkonlari va tasavvuf tariqatlari mazmun-mohiyatini teran anglatish uchun ta’sirchan she’rlar bitganlar.

Ya’ni, she’riyat muayyan ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-huquqiy vazifalarni ham azaldan uddalab kelmoqda. Mazkur “Devon”dan ko’plab ijtimoiy mavzudagi she’rlar ham joy olgan.

Bu o’rinda shoirning el-yurtimiz hayotida muntazam yuz berib turadigan turli yorqin voqealarga bag’ishlangan she’rlari haqida so’z bormoqda.

Shoir sport, qurilish va bunyodkorlik, qishloq va suv xo’jaligi, sanoat va harbiy soha, madaniyat va san’at – hayotimizning barcha soha va tarmoqlaridagi har bitta yarq etgan muvaffaqiyatni alohida she’r bitib ulug’laydi. Bunday yondashuv, ta’bir joiz bo’lsa, Yangi O’zbekistonda erishilayotgan zafarli odimlarni she’riy uslubda sharaflash ekani bilan alohida e’tirofga loyiqdir.

Muxtasar aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “She’riyatga oshno bo’lgan inson aslo kam bo’lmaydi”. Shu ma’noda, kitobxon va she’rsevar xalqimizga muhtasham “Yarim asr devoni”ni taqdim etib, bizni she’riyat olamiga yana bir bor oshno etgani uchun O’zbekiston xalq shoiri, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, senator Sirojiddin Sayyidga tashakkur bildiramiz va ijodiga yangi ilhom-u parvozlar tilab qolamiz.

**Akmal SAIDOV,
akademik**

Boshlanishi 1-sahifada.

Bino loyihasi polyak me’mori Yuzef Ploshko tomonidan ishlab chiqilgan va Venetsiya gotikasi uslubida qurilgan.

Dastlab, Musulmon xayriya jamiyati ehtiyojlari uchun mo’ljallangan mazkur saroy keyinchalik ilmiy va ijtimoiy markazga aylangan.

Bu dargoh 1926-yili Birinchi Umumittifoq Turkologiya Kongressiga mezbonlik qilgan. Ushbu tarixiy anjumanda turkiy xalqlarning umumlotin alifbosiga o’tish masalasi keng muhokama qilinib, jadidlar ilgari surgan islohotlar asosida ilmiy qarorlar ishlab chiqilgan. Kongressda qazbayjonlik islohotparvar olimlar o’zbek adabiyatini ham ishtirok etgan.

Keyingi manzil Ozarbayjon Yozarlar birligi binosi bo’ldi. 1934 yilda tashkil etilgan Uyushmaning asosiy maqsadi – milliy adabiyotni rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo’llab-quvvatlash va turkiy xalqlar adabiy aloqalarini mustahkamlashdan iborat.

Bugungi kunda unga mashhur yozuvchi va jamoat arbobi Anar Rzayev rahbarlik qilmoqda. Biz borganda uyushma faoliyati bilan uning o’rinbosarlari tanishtirdi. Anar muallimning o’zi bilan esa safarning to’rtinchi kuni uchrashishi nasib qildi. “Besh qavatli uyning oltinchi qavati”da o’tkazilgan uchrashuv butun umr yodda qoladigan taassurotlarga boy bo’ldi.

Keyingi kuni 2000-yilda tashkil etilgan Boku Slavyan universitetida bo’ldik. Slavyan va Yevropa tillari bo’yicha mutaxassislar tayyorlovchi nufuzli oliy ta’lim muassasasining kutubxonasiga “Jadid” gazetasida



chop etilgan sara maqolalar asosida tayyorlangan “Tilda, fikrda, ishda birlik” nomli to’plam hadya etildi. Universitet rektorining aytishicha, tez orada kutubxonada o’zbek adabiyoti bo’limi tashkil etiladi.

Keyingi kuni ekspeditsiya a’zolari Bokuning tarixiy ramzlaridan biri – Faxriylar xiyoboniga bordi. Mazkur muqaddas maskan – Ozarbayjon xalqining ozodligi, ravnaqi va madaniy-ma’naviy taraqqiyoti yo’lida fidokorona xizmat qilgan yirik shaxslar xotirasi abadiylashtirilgan joydir.

Ekspeditsiya ishtirokchilari faxriylar qabri boshiga gullar qo’yib, davlat va xalq ardog’idagi shaxslar, jumladan, mustaqil Ozarbayjon Respublikasining birinchi Prezidenti Haydar Aliyev, taniqli olima Zarifa Aliyeva, bastakor Uzeyir Hajibeyev, qo’shiqchi Muslim Magomayev va boshqa mashhur zotlar xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Tushdan so’ng Bokudan 250 kilometr uzoqlikda joylashgan Oqtosh shahriga yetib borgan ekspeditsiya a’zolari ikki xalqning ardoqli va atoqli adibi Maqsud

Shayxzodaning uy-muzeyini ko’rishga muyassar bo’ldi. 1989-yilda tashkil etilgan muzey fondida 226 turdagi eksponat saqlanadi. Ular orasida adibning shaxsiy buyumlari, qo’lyozmalar, fotosuratlari, asarlari va ijodiy faoliyatiga oid nodir hujjatlar mavjud.

Undan chiqib, Shaki – Ozarbayjonning shimoli-g’arbida, Kavkaz tog’lari etagida joylashgan qadimiy shaharga qarab yurildi.

Tarixi miloddan avvalgi VI asrlarga borib taqaluvchi ushbu mo’jaz shaharcha Buyuk lpak yo’li chor-hanasida joylashgan bo’lib, mavdo rahismandlik va madaniy markazi sifatida nom qozongan. Shakining eng mashhur obidasi – XVIII asrda qurilgan Shaki xon saroyidir. U shabaka derazalari, rang-barang freskalari va yog’och ustunlari bilan Sharq me’morchiligining betakror namunasi hisoblanadi. Saroy, Gilahli masjidi va qadimiy qal’a devorlari 2019-yilda UNESCO Jahon merosi ro’yxatiga kiritilgan.

Ertasi kuni buyuk mutafakkir, shoir Nizomiy Ganjaviy tug’ilgan tuproqlarni ziyorat etish nasib qildi.

Ganja – Ozarbayjonning eng qadimiy va ikkinchi yirik shahri bo’lib, uning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda V asrdayoq tilga olingan bu shahar qadimdan ilm, adabiyot, hunarmandlik va savdo markazi bo’lgan.

Bu yerda joylashgan Nizomiy maqbarasi, qadimiy Juma masjidi, Shoh Abbos karvonsaroyi va boshqa me’moriy obidalar ekspeditsiya a’zolarini hayratga soldi. Ganja 2021-yilda “Turkiy dunyo madaniyat poytaxti” deb e’lon qilingan.

Uning keng xiyobonlari, madaniyat markazlari, universitetlari va teatr binosi bugungi Ozarbayjonning taraqqiyot timsolidir.

Shaharning ramziy darvozasida quyidagicha yozuv bor: “*Miloddan avvalgi II ming yillikda yirik ozarbayjon sarkardasi va davlat arbobi Afrosiyob Ganja qal’asi atrofida Fors hukmdori Kayxusravning qo’shinini tor-mor qilgan.*

Avesto. Geografik traktat”.

Ekspeditsiya har bir g’ishtni, har bir daraxtidan o’timshning nafasi ufurib turgan qadimiy shahardan yana Boku sari yuzlandi.

“World business center”ning majlislar zalida ozarbayjon va o’zbek ijodkorlari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Tadbirni “Dunyo yosh turkiy yozarlar birligi” raisi, shoir va publiksist Intiqom Yashar olib bordi. U tashkilotning maqsad-vazifalari, faoliyati va kelgusida turkiy dunyoning turli mamlakatlari, jumladan, Ozarbayjon va O’zbekiston yosh yozuvchilari bilan birgalikda amalga oshirish rejalarlashtirilgan loyihalar haqida gapirdi. Do’stona e’tiroflarga boy bo’lgan yig’inga ikki tilda yangragan mushoira o’zgacha ruh bag’ishladi.

Tadbir yakunida Dunyo yosh turkiy yozarlar birligiga yangi a’zo etib saylangan bir qancha mahalliy va o’zbekistonlik yozuvchilarga rasmiy a’zolik guvohnomalari topshirildi.

Xalqaro Yevroosiyo Matbuot Fondi joylashgan binoning hovlisi o’zbek milliy taomi – oshni tayyorlash asnosida Alisher Navoiy merosining yetuk tadqiqotchisi, taniqli adabiyotshunos va o’zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarini mustahkamlash yo’lida faol ijod qilib kelayotgan olim Almaz Ulvi, ulkan adib Chingiz Abdullayev, mashhur shoir, o’zbek millatining kuychisi Akif Bag’ir, o’zbek adabiyotining yirik bilimdoni Yashar Qosim bilan qizg’in suhbatlar bo’lib o’tdi. Mazkur uchrashuvga Ozarbayjon va turkiy dunyoning sevikli shoiri Romiz Rovshan bilan kechgan samimiy muloqot va mushoira yanada fayz bag’ishladi.

Keyingi kuni ekspeditsiya a’zolari taniqli rassom Navoiy Metinning ijod ustaxonasidagi mo’jizalardan bahra oldi. Umuman olganda, ekspeditsiya ulkan taassurotlar, hayratlar, muhim ma’lumotlarga boy bo’ldi.

Umid qilamizki, qardosh xalqlar o’rtasidagi do’stona aloqalar, madaniy-ma’naviy yaqinlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni o’rganish va targ’ib etishga xizmat qiladigan bu kabi ijodiy safarlar bundan keyin ham muntazam tashkil etiladi.

Shahriyor SHAVKAT



“

Farzandlari bilimli, iste’dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug‘ bo‘ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

”

AN’ANALAR ETADI DAVOM...

Yosh ijodkor juda ko‘p kitob o‘qishi mumkin. Undan o‘ziga yarasha saboq, bilim oladi. Lekin bitta yetuk shoir yoki yozuvchining suhbatida bo‘lish unga yuzta kitob o‘qiganidan ko‘proq narsa beradi. Hatto dunyoqarashini o‘zgartirib, ijod imkoniyatlarini ochib yuborishi hech gap emas.



“Ammo professional adiblarning vazifasi beminnat xizmat ko‘rsatish byurosi xodimlarining vazifasidan jinday farq qilishi” bois ularning rejimi, ijodiy rejasi, zimmasidagi mas’uliyati, kayfiyati va fursati doim ham yoshlar bilan bafurja suhbat qurish imkonini bermaydi. Shu ma’noda Respublika yosh ijodkorlarining an’anaviy Zomin seminari ikki avlod vakillarini uchrashtirish, ularga sof ijodiy muhit yaratish yo‘lidagi beqiyos loyihadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan seminar ilk bor 1997-yilda o‘tkazilgan edi. Oradan qariyb o‘ttiz yil o‘tdi. O‘sha paytda shogird sifatida ishtirok etganlarning aksari bugun ustoz maqomiga erishdi. Adabiyot bo‘stoniga esa yangi-yangi ijodkorlar qadam qo‘ymoqda. Ular ham Zomin shukuhidan bahramand bo‘lishga orzumand, astoydil harakatda.

Seminar joriy yilda ham an’anaga ko‘ra uch bosqichda o‘tkazildi. Sababi, mamlakatimizning eng chekka hududlarida badiiy ijod bilan shug‘ullanayotgan yoshlarni ham aniqlash va adabiy jarayonlarga jalb qilish maqsad qilingan. Qolaversa, saralash bosqichlarining adolatli va shaffof o‘tishiga e’tibor qaratildi. Toki eng munosiblar tanlansin va boshqalar ham ularga havas qilib, kelgusi seminargacha o‘z ustida ishlab, harakatdan to‘xtamasin.



Davlatimiz rahbarining “Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan atoqli adiblar nomi bilan yuritiladigan har bir ijod maktabidan ham 5 nafardan ijodkor o‘quvchi saralab olindi.

Jami 128 nafar yosh qalamkash Respublika bosqichida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Adiblar xiyobonida qad rostlagan buyuk bobomiz Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yishdan boshlangan adabiyot bayrami 7–9-iyul kunlari Jizzax viloyatining Zomin tog‘lari bag‘rida joylashgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJga qarashli sanatoriyda davom etdi.

Yoshlar she’riyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima, badiiy publitsistika, adabiy tanqid yo‘nalishlari bo‘yicha uch kun davomida ustozlardan saboq oldi, tengdoshlari bilan fikr almashdi.

An’anaga muvofiq “Zomin oq-shomlari” she’riyat kechasi ham tashkil etildi. Bu kechada yoshlar ham, ustoz shoir-adiblar ham she’rlar o‘qidilar hamda o‘z hayotiy tajribalarini hikoya qilib berdilar. Bu jo’shqin va unutilmas lahzalar tasvirlarga va ko‘ngillarga muhrlandi.

Seminar yakunida barcha ishtirokchilarga Xalq banki tomonidan ajratilgan esdalik sovg‘alar, ya’ni noutbuk, ijod maktabi o‘quvchilariga esa telefon, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va Jizzax viloyati hokimligining pul mukofotlari, Yozuvchilar uyushmasining maxsus sertifikat, statuetka, kitoblari jamlanmasi taqdim etildi.

Biz Zomin yoshlari kelgusida hayot va ijodda ulkan muvaffaqiyatlarga erishishiga ishonamiz. Zero, ularga shaxsan Davlat rahbarining o‘zi “Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatan adabiyotiga Jizzax diyorida qo‘yayotgan qadamlari qutlug‘ bo‘lsin!”, deya ezgu tilaklarini bildirgan edi. Seminar shioriga aylangan bu so‘zlar zamirida esa davlatning adabiyot va adabiyot ahliga, kitobxonlikka berayotgan bemsil e’tibori va g‘amxo‘rligi mujassam.

Biz ham yoshlarni qutlab qolamiz. Ularning Zomin tog‘lari bag‘rida yangragan sara asarlarini sizga ham ilindik.

**Farida AFRO‘Z,
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi raisi o‘rinbosari**



Tom HIRONS

AYNI DAM

Chechaklar qiyg‘os gullar, gullar gullar ayni dam,
Quyosh bosh ko‘taradi, bosh ko‘tarar hilol ham,
Chaqaloqlar jilmayar, jilmayib boqar olam,
Qarshilikka qaramay qarshi chiqar qaydadir,
Ikki yosh bir-biriga dil rozini aytadir.

Tamaki va hazilni bo‘lishar yoshullilar,
Suv yuzida o‘ynaydi, o‘ynaydi sho‘x shu‘lalar,
Shu‘lalar rang olib taralar ashulalar,
Xavf tug‘ilsa, tirsaging tutaman, ayrilmayman,
Men seni o‘pganman-ku, qoshingdan qayrilmayman.

Yurak doim intilar, intiladi sevishta,
O‘lim farishtasini kiritmagil sen tushga,
Yonoqlarim ulgursin kipriklaring sezishga,
Yorqin edi ilk nigoh, yorqin edi ilk so‘zlar,
Shu sabab qayta sevdik ko‘hna dunyoni bizlar!

Ingliz tilidan
Guljahon ILASHEVA
tarjimai



TABASSUMING SABAB

Qayg‘ular ko‘ngilni etadi mayib,
Omonat lahzalar o‘tmasin g‘amgin.
Sen kulib yashagin, mayin jilmayib,
Tabassuming sabab bu hayot rangin.

Qalbing darvozasin shodliklarga och,
Quvonchlar to‘kadi yurakning zangin.
Quyoshday borliqqa kulgularing soch,
Tabassuming sabab bu hayot rangin.

Asov hislaringga hokim bo‘l o‘zing,
Jimgina kuzatma tuyg‘ular jangin.
Olam yog‘dulanar kulgularing ko‘zing,
Tabassuming sabab bu hayot rangin.

Gajdum sitamlarni ko‘ngildan quvib,
Chiqargin hasratning ming yillik changin.
Poklagin qalbingni kulguga yuvib,
Tabassuming sabab bu hayot rangin!

Feruz
RAHMATOVA
Sirdaryo



“HAR NE ISTARSEN, O‘ZUNG DIN ISTAGIL”

(esse)

Bir paytlar inson o‘zini anglash uchun yuragiga quloq tutardi. Hayot yo‘lini topishda aqlni bir eshitsa, qalbni ikki tinglardi. Ko‘ngil mulkidagi Vijdon, Insof, Adolat, Andisha kabi yuksak qadriyatlar insonning ichki kompasini edi go‘yo. Biroq bugun inson o‘zini topishda, anglashda tabiiy mezonlardan anchayin uzoqlashib, tashqi omillarga bog‘lanib qoldi. Taassuf, bugun u o‘ziga o‘zgalar qarashi va qarichi bilan baho bermoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizda tobora keng palak yoyib borar ekan, bu qarich-u qarashlar qurshovidan sarmastmiz, chiqib ketolmayapmiz. Biz qanday yashayapmiz, nima yeb, nima ichyapmiz, egnimizga shu bugun nima ildik – “layk” sanaymiz. Turmush tarzimizga “kuzatuvchilar soni”, “trendlar” ta’sir o‘tkaza boshladi. O‘zganing baxt hikoyasidan o‘z hikoyamizni to‘qishga urinadigan bo‘lib qoldik. Lekin bu jarayonda eng katta yo‘qotish nima bo‘ldi? Qalb! Ha, aynan qalb va uning sodda, samimiy ehtiyojlari.

Bugun ko‘pchilik sahifasida yuzlab layk yig‘ib-teresa-da – yolg‘iz. Sahifasi minglab kuzatuvchi tomonidan ko‘rilsa-da – yolg‘iz. Kulib turgan chehra ortida ichki kurashlardan toliqqan, ammo hech kimga ko‘rsatgisi kelmas qiyofa bor.

Yetmaganiga, do‘st-u dugona bir-birini “raqamli” yo‘qlaydi, bir piyola choy ustida suhbat qurish tobora favqulodda voqeaga aylanib borayotgandek, nazarimda. Muloqot virtual, munosabatlar yuzaki, samimiyat esa sun‘iy tus olgan.

Bu insonning nainki ijtimoiy hayotiga, ruhiyatiga ham ta’sir qilmoqda. Chunki inson tabiatin mehr-muhabbat, e’tibor va jonli muloqotga muhtoj. Ko‘z ko‘zga tushib gaplashgan bo‘lak.

Albatta, bu texnologiya yomon degan

xulosa bermasligi kerak. Ular hayotni yengillashtirmoqda, axborot olish, ulashish, o‘rganish uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Lekin qalb boshqa me’yor bilan yashaydi. U raqamlarga qarab emas, mehrga qarab qadrlaydi. Birgina samimiy suhbat, nigoh, so‘z ko‘ngilni shod etadi. Shuning uchun ham ko‘plab odamlar telefonda soatlab vaqt o‘tkazsa-da, o‘zini baxtli his qilmaydi.

Shu uchun inson o‘z qadriini o‘zidan izlashi lozim. Qachonki qalb ovozi eshitgan inson raqamlar emas, tuyg‘u yetovida bo‘ladi. U baxtni sun‘iy sharoitlardan emas, xotirjamlikdan topadi.

Zamonaviy hayotda biz ko‘p narsalarga erishishimiz mumkindir: minglab obunachilar, mashhurlik, pul, mansab... Ammo bular ichida eng noyob va eng keraklisi samimiyatdir. Samimiyat bilan yashagan inson hayotda adashmaydi. Chunki u o‘zini bilib, o‘zini sevib, o‘zini tan olib yashaydi. Va ana shunda u boshqalarni ham chin qalbdan sevishta qodir bo‘ladi. Zero, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy aytganidek:

*O‘z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o‘zungdin istagil.*



Mashhura BOTIROVA
Andijon

TANDIR

Qo‘shni uyga kelgan mehmon
Devorimdan mo‘ralaydi.
Yigit qo‘shni tandirgamas,
Yuragimga o‘t qalaydi.

Asta mendan gap olmoq-chun,
So‘zlarini saralaydi.
Hovlimizga boqib nuqul
Tandiriga qaramaydi.

Men yuribman shod-u xurram,
Uni sevgi oshno etdi.
Bilmam, neni xayol surar?
Bir bog‘ o‘tin yonib ketdi.

Dilso‘zin aytirmoq uchun
Balki otashkurak kerak...
Yo‘q! Aslida tandirdayin
Yonib turgan yurak kerak!

Savol hamda kelar yig‘i,
Bilmam, qanday joyga yetdi?
Tandirga o‘t yoqqan yigit
Yuragimni yoqib ketdi...



Ro‘zixon O‘RINBOYEVA
Toshkent viloyati

ZOMINDAN BOSHLANADI



TAASSUROT

Zomin. Bu nomni ilgari juda ko'p marta eshitganman, lekin bu gal menga bu so'z o'zgacha eshitildi. Yuragimda sirli, yorqin iz qoldirdi. Bu yilgi an'anaviy Zomin seminari – yosh ijodkorlar uchun haqiqiy bayram, so'z san'atini yuragida ardoqlaganlar uchun ilhom manbayi bo'ldi. Har bir ishtirokchi bu yerda o'zligini, ichki dunyosini topdi, qalamini sinovdan o'tkazdi. Men ham ularning biri sifatida bu muqaddas maskandan bir umrga yetadigan ruhiy boylik va bilimlar bilan ilhomga to'lib qaytmoqdaman.

Seminar meni ilk kunidanoq quvonch, iliqlik kayfiyati bilan qarshi oldi. Zominning beg'ubor tabiati, tog' havosi, o'ziga xos sukunati va shovuri yuragimga ilhom uchqunini soldi. Har qadamda she'r yozgim, har nafasda irod qilgim keladi. Shu darajada so'z va muhabbat uyg'unlashgan edi bu muhitda.

Seminarida bizga ustozlik qilgan fidoyi ijodkorlar Zulfiya Mo'minova, Dilfuza Shomalikova, Noriniso Qosimova va Nargiza Asadovaga o'zinning chuqur minnatdorligimni izhor etaman. Ularning har bir tavsiyasi yurakdan, har bir tanqidi samimiy, har bir ko'rsatmasi ustozlik mehri ila yo'g'rilgan edi. Sho'balarda she'r o'qidik, bahslashdik, xatolarimizni ko'rdik, o'rgandik. Va eng muhimi o'zimizga bo'lgan ishonchni uyg'otdik.

Seminar doirasida o'tkazilgan mushoiralar, adabiy uchrashuvlar, mahorat darslari, tog' bag'rida o'tkazilgan suhbatlar, kitoblar taqdimoti – barchasi qimmatli saboq bo'ldi. Ayniqsa, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Farida Afro'z kabi yurtimiz faxri bo'lgan ijodkorlar bilan bir sahnada she'r o'qish orzum edi. Bu orzu Zominda ro'yobga chiqdi. Topgan do'stlarim, tinglagan she'rlarim, yozgan satrlarim, yuragimdan o'tgan hislarim – barchasi menga hayot yo'lida unutilmas xotira bo'lib qoldi. Endi men ijodkor sifatida "Shoiraman!" deb dadil ayta olaman. Chunki menga ustozlarim ishonishdi. Men esa bu ishonchni, albatta, oqlayman.

Zomin – endi men uchun jo'g'rofiy joy emas. Bu ma'vo yuragida o'ti bor yosh ijodkorlarning ilhom maskani. Bu joy bir dunyo xotiralarga to'lib-toshgan makon. Bu yerdagi xotiralar yuragimda bir umr saqlanib qoladi.

Bu tansiq saodat uchun Yurt-boshimga yurak-yuragimdan rahmatlar aytaman! Bizga berilgan bu imkon u kishining adabiyot kelajagiga ishonchi, umidi va g'amxo'rliqidir. Biz kabi yosh ijodkorlar bu oliy e'tiborni yurakdan his qilib turibmiz.

Fotimaxon ILYOSOVA
Toshkent shahri

VATAN

Chappar urib gullagan bog'in
O'par edim Vatan tuprog'in.
Hamid OLIMJON

Ko'ksimni bahorga belagan go'sha,
Yaproqlar titrog'in ruhimga qo'sha,
Men ham shu dunyoda odamday yashab,
Tog'laringga yuzim burmabman, Vatan,
Tuprog'ing ko'zimga surmabman, Vatan.

To'rt fasl muttasil – bahor, kuz kelgay,
Norg'ul yigit kelgay, suluv qiz kelgay,
Moziydan azamat bir ulus kelgay,
Kechir, kimligimni bilmabman, Vatan,
Bosh egib, qoshingga kelmabman, Vatan.

Birida bayt bo'lib, birda she'r bo'lib,
Birda Bobur, birda Alisher bo'lib,
Bobolarim osmon, o'zim yer bo'lib,
Gunohkor boladay yig'larman, Vatan,
Bari gunohimni oqlarman, Vatan.



Razm solar bo'lsam "O'tkan kunlar"ga,
Qodiriy qon bilan bitgan kunlarga,
Yetguncha jadidlar kutgan kunlarga,
Qancha armonlarni ko'rmading, Vatan,
Qancha qurbonlarni ko'rmading, Vatan?

Dorilomon ayyom boshimda Humo,
She'r dardi, yurt baxti yuragimga jo,
Kuychi bir shoiring bo'lgayman illo,
Yuragim so'zini bitdim men, Vatan,
Senga qasamyodlar etdim men, Vatan.

Bahodir JOVLIYEV
Qashqadaryo

BU DUNYODA

G'unchalar ham gullab qo'yar ishq totini,
Saman yo'rg'a saqlab yurar ot zotini,
Qoyalardan asrar qirg'iy qanotini,
Inson bilmas ko'hna dunyo sinoatini,
Bu dunyoda nima qolar siz-u bizdan?!

Tunda ko'kni barkash bo'lib oy bosadi,
Irmoqlarni to'lg'ontirib soy bosadi,
Ot toliqsa, uning o'rnin toy bosadi,
Tanbal yo'rg'a ko'zlarini moy bosadi,
Bu dunyoda nima qolar siz-u bizdan?!

Ko'ngil ko'rki ko'zlarimni kuydiradi,
So'lim sahar suyumligim suydirdi,
Mendan oldin chopog'on vaqt yuguradi,
Milyon yilki, Sulaymon tog' jim turadi,
Bu dunyoda nima qolar siz-u bizdan?!

She'rparastim – zamondoshim, umri aziz,
Vatanim deb, sayrasa gar qumri aziz,
Shu diyordan ketib, bo'lgan bormi aziz,
Yermi aziz yo o'tkinchi qormi aziz,
Bu dunyoda nima qolar siz-u bizdan?!



Qir-adirlar karvon surgan nor tuyaday,
Sog'gim kellar bulutlarni oq biyaday,
Goh xayollar ergashadi-ku soyaday...
Shukur, Vatan suyab turar cho'ng qoyaday,
Bu dunyoda nima qolar siz-u bizdan?!

Mohinurxon TURSUNOVA
Farg'ona



AVGUST

Avgust bo'yi ketmagan ko'cha,
Yog'holvaday cho'zilgan tunlar.
Soyang bilan gaplashdim necha,
Necha bora dil bo'ldi xunlar...

Sen yurgan yo'l – unda o'zim bek –
Mening baxt-u taqdir yo'lim-da.
Tomir otib borayotgandek,
Avgust chechaklari dilimda.

Oqib kirdi bag'rimga shamol,
Ko'kragimda – yozning ufuri.
Munkillaydi menga tanish chol,
Tanish bola kellar yugurib...

Ojizligim sira olmam tan,
Karvon-karvon o'tib borar kun.
Men avgustni qo'msab yashayman,
Shu manzildan o'tganing uchun.

Qalblar aro ko'rinmas parda,
Sendan ko'cha qolgan xotira.
Sen bosgan bu tosh yo'laklardan
Avgust atri ketmaydi sira...

Sutga botgan tunlarning bari,
Men simobrang bargga o'xshayman.
Izlaringdan ketmasman nari –
Avgustlarni kutib yashayman.

Muhammad HODIYEV
Buxoro

KITOBNING ARZI

Yotaverib sumkangda
Juda zerikib ketdim.
O'qishga hech hushing yo'q,
Tushundim, anglab yetdim.
Chuqur bilim olmoqqa
Aqling yetmas – juda kam.
Darsga tayyorlanmaysan,
O'qimaysan bir bet ham.
Nega olmaysan qo'lga
Emasman-ku yaroqsiz.
Hayf ketar har daqiqang,
Bir nazar sol, quloqsiz!
Mehr bilan o'qiydi
Sinfidoshing kitobin,
Sen esa ilg'amaysan
Aslo mening xitobim.
Ha, aytgancha, senga bop
Bir kitob bor – aqida.
Juda qiziq: bir yalqov,
Tanbal bola haqida.



Mohidil ALIMOVA
Jizzax





12-IYUL - ABDULLA AVLONIY TUG'ILGAN KUN

Ulug' ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning nevarasi, kimyo fanlari nomzodi, falsafa doktori, polimerlar va nanotexnologiyalar kimyosi bo'yicha muhandis Jamshid Avloniy uzoq yillar AQSHda yashab, nufuzli kompaniyalarda rahbar lavozimida faoliyat olib borgan. Bugungi kunda esa, olim bobosi nomi bilan atalgan malaka oshirish instituti bilan hamkorlikda mamlakatimizga ilg'or texnologiyalarning kirib kelishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Jamshid Avloniy 1956-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1991-yildan boshlab, AQSHda kimyo yo'nalishida faoliyat olib borgan. 2015-yildan 2017-yilgacha Son Tech LLC kompaniyasi direktori lavozimida ishlagan.

Bugungi kunda Jamshid Avloniy bobosining boy ilmiy, adabiy va ma'rifiy faoliyatini targ'ib qilish, asarlarini qayta nashr etish va yosh avlodga yetkazish borasida bir qator xayrli ishlarga bosh bo'lmoqda. Bu esa, oltin silsila davrlar osha uzviy barqarordir, ma'rifat shajarining poydor ildizlarida hayot suvi yugurib, surx navdalar kurtak otmoqda demakdir.

Jamshid Avloniy bobosini xotirlab shunday deydi:

– Men Abdulla Avloniyning Kenja ismli o'g'llarining o'g'li bo'laman, demak, nevaraman. Dadamning aytishicha, rahmatli bobom ko'proq kitob o'qish kerakligini,

maktab va oila hayotda juda muhim tarbiya vositasi ekanligini, vatanparvarlik esa har bir insonning nafaqat qalbida, balki qonida ham bo'lishi zarurligini bot-bot ta'kidlar ekanlar. Amakilarimdan biri Ovro'pa tillariga ortiqcha ruju qo'ygani munosabati bilan bobomiz har bir so'zni alohida-alohida urg'ulab "Imkonning boricha til o'rgan, bu yaxshi, lekin o'z ona tilingni hammasidan mukammal

bilish shart! O'zbek o'z tilini yo'qotsa, millat sifatida yo'q bo'lib ketadi!" deganlarini ko'p eslashardi. Bobom o'zi kabi jaddilar bilan birgalikda yoshlarni ilmiy qilishga, millatparvarlik ruhida tarbiyalashga, yurtning erkin, hur va obod bo'lishiga harakat qilgan.

Ularning hayoti va faoliyati men uchun yuksak namuna va ibrat vazifasini o'taydi, bobom o'zbek pedagogikasining asoschisi sifatida darsliklar ro'yxatiga matematika va

geografiya fanlarini kiritib, avlodlariga ulkan ma'naviy boylik qoldirib ketdi. Bu nafaqat men uchun, balki barcha yurtdoshlarimiz uchun faxr.

Otam Kenja Avloniy ham bobomning izidan borib, ko'p yillar ta'lim sohasida faoliyat yuritgan. Bolaligimda men ham bobom va otamga o'xshab o'quvchilarga dars berib, ularning savodini chiqarishni istardim. Otam 25 yil oliygohda (ilgarigi Politehnika institutida) polimer-kimyo sohasida talabalarga dars

Bevosita suhbatdan keyin u meni o'zi bilan birga ishlashga taklif qildi. Bundan juda xursand bo'ldim. Shunday qilib, olimning laboratoriyasida 1991-yildan 1995-yilga qadar ishlab, katta tajriba orttirdim. Bu inson o'tgan asrning 70-yillarida polimerlarga oid izlanishlar olib borgan.

2000-yilda ustozim Alan Makdiarmid, AQSHlik yana bir olim Alan Xiger va yaponiyalik olim Xideki Sirakava Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu ixtiro

Shundaq qilib, 2018-yilda bilim va tajribalarni yurtimiz taraqqiyoti yo'lida qo'llashni maqsad qilib qaytib keldim. Bugungi kunda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazida ilmiy tekshirish laboratoriyasi mudiri sifatida faoliyatimni davom ettirib kelmoqdaman. Shu bilan birga Samarqand davlat universiteti magistr talabalariga sanoatdagi innovatsiya sohasida ta'lim beraman.

Ozmi-ko'pmi hayot tajribasiga ega ziyoli sifatida shuni aytmochimanki, muhtaram Prezidentimiz olamshumul islohotlarga bel bog'lagan. Bu qadar keng qamrovli yangilanishlar dunyo tarixida kam uchraydi. Asosiysi, Rahbarimiz har bir sohada o'zgarishlar ilm-fanga asoslangan bo'lishi shartligini, mamlakat taraqqiyoti uchun aniq fanlar muhim ekanligini qayta-qayta uqitirib kelyaptilar. Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy va ixtisoslashgan Prezident maktablari ta'lim tajribasida ko'rilmagan voqe'lik. O'ylaymanki, bu va boshqa maktablarmizdan kelajagimizning atoqli namoyandalari, jadid bobolarimizning munosib izdoshlari yetishib chiqadi.

Avloniybobomkabima'rifatparvarlarning hayoti, ijodi va faoliyati barchamiz uchun ibratdir. Men "Jadid" gazetasining shioriga yuklangan chuqur ma'noni yurtdoshlarimizga yana bir bor eslatmoqchiman: "Tilda, fikrda, ishda birlik!" Biz millat bo'lib tilimiz bir, fikrimiz, ishimiz yagona maqsadga bo'yusundirilgan chog'dagina Yangi O'zbekistonni barpo qila olamiz. Uchinchi Renessansning asosi ham bizning birligimizda, ajdodlarimizdan meros an'anani, ya'ni dunyo ilmining bayroqdori bo'lishimizda! Buning uchun millat yetakchisining o'zi shaxsan bosh bo'lib turibdilar. Holbuki, ayni ana shu g'oya uchun bir paytlar jadid bobolarimiz boshiga ne ko'rgiliklar tushmagan deysiz... She'rda aytilganidek, "Belni bog'lash chog'idir bu, o'zni chog'lash chog'idir!"

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA



“Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur.

Abdulla AVLONIY

”

Boshlanishi 1-sahifada.

Keyingi yillarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning butun Markaziy Osiyo va undan tashqarida muhim o'rin tutgan, mintaqadagi xalqlar taraqqiyoti uchun jon kuydirgan jaddilarga e'tibori bir behbudiyshunos sifatida meni behad quvontirib, ilhomlantirib kelyapti. Ayniqsa, "Turkiston jaddilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror nafaqat O'zbekiston tadqiqotchilari, balki mintaqada jaddishunoslari uchun ham yangi izlanishlar, kashfiyot va munozara uchun beqiyos imkoniyat eshiklarini ochdi.

Tojikistonda ham Mahmudxo'ja Behbudiyning ilmiy va ijodiy merosi tadqiq etib kelinmoqda. Masalan, akademik Sohib Tabarov Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulvohid Munzim merosini o'rganib, ikki jildlik kitob yozgan.

sanagan, g'oyatda hurmat qilgan. Ko'p ishlarni boshlashda undan maslahat olgan. Masalan, 1908-yili Buxoroda yangicha usuldagi maktab ochish uchun bir guruh ziyolilar Samarqandga, Behbudiy huzuriga borishgan. Ular orasida Sadrididdin Ayniy, Abduvohid Munzim va Abusaid Hamdiy bo'lgan. Behbudiy bu maktab

Behbudiyning surati hozirda ko'p nashrlarda bosilayotganini aytish joiz.

To'g'ri, sovet davrida Behbudiygagina emas, balki barcha jaddilarga nisbatan dushmanlik kayfiyati "qadimchi"larda ham, avval chor ma'muriyati, keyin bolsheviklar firqasi faollarida ham kuchli bo'lgan.



BEHBUDIYNING XO'JANDLIK MUHIBLARI

Taniqli olimlar Ibrohim Usmonov, Abduxoliq Nazariy va boshqa tadqiqotchilar ham Behbudiy, "Oyina" borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Behbudiy geografik va etnik chegaralarga sig'maydigan genial shaxs edi. U asos solgan "Oyina" sahifalarida faqat Markaziy Osiyo ijodkorlarining emas, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, hatto Hindistonda yashayotgan kishilarning ham maqolalari bosilgan. Ular orasida tojik jurnalistlari va ma'rifatparvarlari ham bor edi. Ma'lumki, o'sha davrlarda Samarqand va Xo'jand o'rtasidagi ma'rifiy aloqalar mustahkam bo'lgan. Bejiz Xo'janddagi dastlabki maktablardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy nomi bilan atalmagan edi.

Bu munosabatlarning davomiylikida Behbudiy va Ayniyning do'stligi ham ahamiyat kasb etgan. Ular orasida bor-yo'g'i uch yosh farq bo'lsa ham, Ayniy Behbudiyning ustoz

uchun darsliklar tayyorlashda yordam ko'rsatib, hatto xarita tuzib bergan. Behbudiyning umri bevaqt xazon etilmaganda, u ham Ayniy kabi uzoq umr kechirganda, bundanda buyuk ishlarni amalga oshirgan bo'lardi. Lekin...

Shu o'rinda yana bir ma'lumot keltirib o'tmoqchiman. "Padarkush" dramasi faqat Toshkent va Samarqandda emas, balki Xo'jandda ham muvaffaqiyatli qo'yilgan. Men bu haqda ma'lumot topganman – bu Xo'jandda spektakl qo'yilishi borasidagi afisha-e'lon.

Behbudiyga zamondosh ziyolilarning ehtiromiga yana bir misol shuki, o'z davrida "Shu'laiy inqilob" jurnalining bir soni to'liq unga bag'ishlanadi. Mazkur majallada Sadrididdin Ayniy, Saidrizo Alizoda va boshqa jaddilarning Behbudiyga bag'ishlangan maqolalari, Faxriddin Rojjiyning she'ri o'rin olgan. O'rni kelganda, mazkur majalladagi

Nega? Chunki Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davridan ancha yillarga o'zib ketgan, kelajakni oldindan ko'ra olgan ma'rifatparvar inson edi. Tabiiyki, bunday ilg'or tafakkur egalari uchun hech qaysi zamonda yengil bo'lmagan.

Ammo oltin zanglamaydi. Vaqt o'tib, tarixiy adolat tiklandi. Jaddilar oqlandi, ularning faoliyatiga munosib baho berildi. Shuning uchun ham millat oydinlarining hayoti va ijodi faqat O'zbekistonda emas, balki qo'shni mamlakatlarda, olis xorijda ham muntazam o'rganib borilmoqda. Bu tadqiqotlar yangi taraqqiyot yo'lga chiqqan navqiron davlatlarimiz uchun bemisl "yo'l xaritasi" vazifasini o'taydi.

Biz esa Behbudiy timsolida yana bir karra ikki xalq o'rtasidagi do'stlik, bag'rikenglik va hamkorlikni tarannum etamiz.

O'rinboy USMON
yozib oldi.

ADABIY DO'STLIK

IKKI O'ZBEK YOSH IJODKORI xalqaro festivalda taqdirlandi

Qozog'istonning Oqtov shahrida joriy yil 7–9-iyul kunlari "Oqtov – 2025 Turkiy dunyo madaniy poytaxti" dasturi va Abay Qo'nonboyev tavalludining 180 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan "Turkiy dunyo yosh qalamkashlari" xalqaro festivali turkiy tili davlatlar qamrovida muhim adabiy voqe'likka aylandi.

Festival TURKSOY xalqaro tashkiloti, Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi va Oqtov shahar hokimligi hamkorligida tashkil etildi. Unda turkiy xalqlarning 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan ijodkorlari ishtirok etdi. Mazkur tadbirning maqsadi – turkiy adabiy aloqalarni kuchaytirish, yosh ijodkorlar o'rtasida do'stona munosabat o'rnatish, iste'dodlarni kashf etish va ularni xalqaro miqyosda namoyon qilishdan iborat.

Festivalning asosiy qismini tashkil etgan Adabiy forum Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi rahbari Mereke Ko'ikenovning nutqi bilan ochildi. Forumda Oqtov shahar hokimi Abilqayir Baypaqov hamda TURKSOYning Qozog'istondagi vakili Nishongul Qaratayevlar o'z chiqishlarida festivalning ahamiyatini alohida ta'kidlashdi.

TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev o'z tabrigida festival haqida shunday dedi: "Turkiy dunyoning turli mintaqalaridan kelgan yoshi qalamkashlarni bir maydonda birlashtirgan mazkur festival faqat adabiy almashinuv emas, balki umumiy til, tarix va qadriyatlarga tayangan yagona madaniy makonni aks ettiradi. TURKSOY yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda davom etadi".

Festival doirasida nasr, nazm va drama yo'nalishlari bo'yicha tanlov ham o'tkazildi. Unda Qozog'iston, Turkiya, O'zbekiston, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Turkmanistondan jami 59 nafar yosh yozuvchi o'z asarlari bilan ishtirok etdi. Saralash natijalariga ko'ra, 12 nafar qalamkash g'olib deb topildi.

Quvonarlisi shundaki, tanlovda ishtirok etgan ikki nafar o'zbekistonlik ijodkor Javlon Jovliyev (nasr yo'nalishida) va Shavkat Do'stmuhammad (drama yo'nalishida) sovrindorlar qatoridan joy oldi.

– Festival ko'p jihatdan o'ziga xos bo'ldi deb o'ylayman, – dedi Shavkat Do'stmuhammad. – Xususan, festival doirasida o'tkazilgan ijodiy



tanlov uchun hech qayerda e'lon qilinmagan asarlarning qabul qilinishida katta ma'no mujassam. Bunda tashkilotchilarning yangi adabiy asarlarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan xayrixohligi, ijodkorlarni yangidan yangi asarlarga rag'batlantirish maqsadi aks etadi. Ta'kidlashim kerak, drama yo'nalishida ishtirok etishning alohida mas'uliyati bor. Chunki bugun zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi puxta asarlarga ulkan ehtiyoj sezib turibdi. O'ylaymanki, bu mukofot ko'psonli o'zbek drama yozarlarining katta ilhom olishiga sabab bo'ladi.

Festival yakunida g'oliblarga maxsus diplomlar, esdalik sovg'alari va tashakkurnomalar topshirildi. Ushbu forum, shubhasiz, yosh turkiy adiblarning birlashishiga, hayrat va g'ayrat bilan yangidan yangi asarlar yozishiga ijodiy yo'l ochadi.

Mirjalol MAHKAMOV,
Bolalar kontentini rivojlantirish markazi yetakchi mutaxassisi



MILLAT FIDOYLILARI

AKA-UKANING AYANCHLI EGIZ TAQDIRI

Inson va jamiyat taraqqiyoti hech qachon oson kechmagan. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadi. Tabiiyki ijtimoiy o'zgarishlar, ma'naviy uyg'onish, hurriyat uchun kurash sinov-u imtihonlarsiz o'tmagan. Erk osonlikcha kelmagan va yoki "oydan tushgan emas". O'z davrining yetuk olimi, shoir Rudakiy deganidek:

Bilki, qiyin hayot berur

*tappa-taxt,
Fozillik, ulug'lik,
mardlik hamma vaqt.*

XX asrning 30-yillaridagi siyosiy qatag'on davri ayni haqiqatni yanada yaqqol namoyon etadi. Biz esa mana shu hikmatni ma'rifat yo'lida fidoyi ikki inson, ikki shaxsiyat – Ahmadjon va Abdushukur Hakimov hayot yo'li misolida anglashga urinamiz. Quyida esa ularga "qiyin hayot bergan mardlik"dan so'zlaymiz.

Ahmadjon Hakimov 1903-yili Andijon viloyatining Suvyulduz qishlog'ida dunyoga kelgan. U zamonasining ilg'or fikrli, ma'rifatga oshno, madaniyatli va e'tiborli kishilari qatorida turgan oilada voyaga yetdi. Bu oila nafaqat moddiy jihatdan farovon, balki ma'naviy jihatdan ham to'kis bo'lib, farzand tarbiyasiga katta ahamiyat qaratardi. Shu bois, farzandning bilimli, keng dunyoqarashli va elga nafi tegadigan shaxs sifatida ulg'ayishi oilada tabiiy hayot tarzi edi.

Garchi biz hozir bir oilada o'sgan ikki shaxsiyat to'g'risida hikoya qilaymiz, biroq ularning taqdir hikoyatida go'yo ikki alohida kitobni varaqlayotgandek bo'lamiz.

Ahmadjon bolalikdan xat-savodli bo'lish, bilim olish, o'zidan ko'ra ko'proq o'zgalar kelajagini o'ylashga moyil ulg'aydi. Bola tabiatida avvalboshi ma'rifatparvar muhit ta'sirida shakllangan bu ezgu qadriyatlar bora-bora uning ta'lim va jamoat faoliyatida ham aks etmay qolmadi.

Jadidlik davridagi aksar ma'rifatparvar boy xonadonlar kabi Hakimovlar oilasi ham ijtimoiy o'zgarishlarga, yangi g'oyalarga ochiq edi. Oqshom chog'lari oila a'zolari to'plangan paytlarda yangi usul maktablarining ahamiyati, jadid ziyolilarining faoliyati, turkiy olamda kechayotgan ijtimoiy va madaniy jarayonlar haqida qizg'in munozaralar bo'lar, gazeta va jurnallar muntazam o'qilardi. Bu esa o'z-o'zidan yosh Ahmadjonda ertaroq savod chiqarib, suhbat mag'zini chaqishga zo'r ishtiyoq uyg'otardi.

Ahmadjon Hakimov ilk savodni o'sha davrdagi ko'plab o'zbek bolalari singari mahalliy qorixonada chiqaradi. Qorixona an'anaviy ta'limning ilk bosqichi sifatida xizmat qilgan bo'lsa-da, qahramonimiz hayotidagi hal qiluvchi burilish bu emas, boshqa – "Vatan" nomli milliy maktab bilan bog'liq bo'ldi. Bu maktab o'sha zamon uchun juda ilg'or bo'lib, unda darslarni Turkiyada harbiy va ma'rifiy tayyorgarlik ko'rgan turk ofitserlari olib borishardi.

"Vatan"dagi tahsili davomida Ahmadjon ta'lim orqali millatni uyg'otish, madaniyat orqali mustamlaka tizimiga qarshi turish, hurriyat uchun o'ta muhimi, avvalo, bilim ekanini anglay bordi.

1920-yillar boshlarida Ahmadjon o'qishni davom ettirish uchun Kavkazga – Ganja shahriga yo'l oladi. Turk ziyolilarining ta'siri uning shaxsiyatida chuqur iz qoldiradi. Ana shu ma'naviy ta'sir natijasida Ahmadjon o'z familiyasini ilm va ma'rifat merosini davom ettiruvchi shaxs sifatida "Hakimzoda"ga o'zgartiradi.



Bu daf'a Andijondagi "Milliy ittihad" tashkiloti Kavkazda ta'lim olayotgan Ahmadjon Hakimovni moddiy jihatdan ta'minlab turardi. Ta'minot ishlarida, ayniqsa, Vaqf bo'limi raisi Qorizoda Nasriddinning o'rni benihoya katta edi. Uning ko'magi Ahmadjonning ta'lim yo'lida uzluksiz ilgarilashiga yo'l ochib, yanada ulkan maqsadlar sari yetaklardi.

Ganjadagi o'quv muhiti esa milliy va islomiy qadriyatlarga sodiq, bir vaqtning o'zida zamonaviy bilimlar va fikrlar bilan boyitilgan bo'lib, bu yerda yuksak ma'naviy salohiyatga ega ziyolilar tarbiyalanardi. Ahmadjon aynan ana shu muhitda yetuk shaxs sifatida shakllanishda dastlabki mustahkam qadamlarni tashladi.

Ganjada olgan ilk tajribasi va ilmiy asoslarini yanada mukammallashtirish niyatida u keyinchalik Boku shahridagi pedagogik texnikumga o'qishga kiradi. Bu dargoh Ahmadjon Hakimovning shaxs sifatida to'liq shakllanish jarayonini yana bir pog'ona yuqorilatganini ko'ramiz.

Boku o'sha paytda jadidlik va turkiy uyg'onish g'oyalari keng tarqalgan, ma'rifat va yangilanishga chanqoq yoshlar jamlangan markazlardan biri edi. Turgan gapki, bu zamin ko'plab yoshlar qatori Ahmadjonni ham ma'rifatparvar shaxs sifatida kamolga yetkazdi.

Endi u nafaqat ta'lim sohasida, balki jamiyatdagi faolligi bilan ham ko'zga tashlana boshladi. Xususan, "Milliy ittihad" tashkiloti faoliyatida uning ishtiroki sezilarli darajada kuchaydi. Bu tashkilot atrofida Fayzulla Sultonov, Sharifjon Rizayev, Sobirjon Sharipov kabi o'sha davrning taniqli, faol va ilg'or yoshlari to'plangan bo'lib, ular milliy mustaqillik, ma'rifat va erkin fikr g'oyalarini umumiy maqsad sifatida olg'a surishardi.

Ahmadjon uchun ushbu davr tom ma'noda tafakkur rivoji pallasi bo'ldi. Har bir muloqot, har bir muhokama uning millat va kelajak haqidagi qarashlari, qayg'urishlarini mustahkamlay bordi. U suhbat va uchrashuvlarda sovetlar olib borayotgan siyosatga qarshi norozilik kayfiyatini qat'iy bildirib borardi. Jumladan, u shunday fikrni aytadi: "Biz davlatga bir kilogramm paxtani bir rubl o'ttiz tiyanga topshirmoqdamiz. Avval inqilobga qadar bir so'mga 3 arshin mato sotib olish mumkin bo'lgan bir metr matoni 3 rubldan sotib olmoqdamiz. Avvalari inqilobga qadar bir rublga 3 arshin mato olish mumkin edi. Bir kilogramm ipakni 7 rubldan topshirmoqdamiz, o'zimiz esa ko'ylik yoki choponni 70–100 rubldan

sotib olmoqdamiz, ba'zida esa bu matoni topib bo'lmaydi. Bug'doyga kelsak, ilgari bug'doy ko'p bo'lgan, ammo hozir kolxozchilar bug'doysiz, unsiz o'tirishibdi, ular ishlarini tashlab, bug'doy izlashga ketishmoqda".

Ahmadjon Hakimov oldiniga otasi, 1925-yilda onasi vafoti tufayli moddiy yetishmovchilik girdobida qoladi. Bokudagi o'qishini tashlab, Andijonga qaytishga majbur bo'ladi. Lekin yuzaga kelgan sharoit uning faolligini zinhor susaytirmaydi, aksincha, u o'zini aynan yo'qotishlarda, qiyinchiliklarda topa boshlaydi. Qaytgani hamono viloyatdagi jamiyat ishlariga bel bog'laydi. Avvalo, xalq ta'limi sohasida ish boshlab, 1925–1931-yillarda o'qituvchilik bilan shug'ullanadi.

Keyinchalik Izboskan tumani xalq sudi raisi (1931-1932) lavozimida ishlab, qishloq aholisining ijtimoiy, ma'naviy muammolariga huquqiy yechim topishga harakat qiladi. Sud muhitini ta'lim, tushuntirish va adolat mezonlari asosida boshqarishga urinadi. Yangiqishloq hududidagi kolxozda rais o'rinbosari (1933-1936) sifatidagi faoliyati ham shu ruhda kechadi: u oddiy ishchi, dehqonlar bilan samimiy muloqotda bo'lar ekan, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi.

Ahmadjon Hakimovning faoliyati, ayniqsa, uning ta'lim va huquq soha-laridagi qarashlari joriy tuzum manfaatlari bilan keskin to'qnashadi. U boy tabaqaning bilim, madaniyat va iqtisodiy tajribasini jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish zarurligini bot-bot ta'kidlar ekan, bila turib boshini kundaga qo'yadi.

Burxon Mashrabi, Hasanxon Niyoziy, Ibrohim Eshonxo'jayev kabi taniqli jadid ziyolilari bilan doimiy muloqotda bo'lishi qahramonimizni sovetlar nazdida kun sayin shubhali shaxsga aylantiradi. Gumonlar ortidan kuzatuvlar kuchayib, holat qahramonimizning 1937-yil 27-sentyabrda hibsga olinishi bilan yakunlanadi. Aslida, bu yakun ham emas, azob-uqubatlarning boshlanishi edi, desak to'g'riroq bo'ladi. Chunki u na bir rasmiy sud, na asosli dalil bilan qamaladi. Jazo tariqasida 1938-yil Baykal-Amur magistrali qurilishiga jo'natiladi.

Ahmadjon Hakimov o'ta og'ir mehnat sharoiti, inson zoti dosh berishi qiyin shafqatsiz sharoitda halok bo'ladi.

Abdushukur Hakimov 1905-yili tug'ilgan. Yuqorida hikoya qilganimiz ayanchli taqdir egasi Ahmadjon Hakimovning ukasi. Bir qaraganda, o'sha oilaviy muhit ukaga ham begona emasdek, biroq ukaning qismati akanikidan farqli, balki yanada og'riqli edi, desak yangilish bo'lmas. Otadan erta yetim qolgach, hali yumushda suyagi qotmagan bolakay mehnatga ilmdan oldinroq kirib boradi. 1915-yildan 1922-yilgacha turli oilalarda xizmat qilib, bolaligini og'ir mehnat soyasida o'tkazishga majbur bo'ladi.

"1920-yili Andijon shahridagi Bolalar uyiga kirganman, bu yerda 1925-yilgacha



Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

yashadim, shu yerda birinchi darajali o'qishni tugatdim", deydi qahramonimiz keyinchalik tergov jarayonida. Mana shu ma'lumotning o'ziyoq ko'p narsani oydinlashtiradi. Ya'ni Abdushukur Hakimovning Bolalar uyiga topshirilishi ortida turli manzaralarni chizamiz va ular orasida ko'ngilni o'rtaidigani – bu onaning nochor qiyofasi, ikkala farzandini birvarakayiga o'qitishga qurbi yetmaslik, qo'li kaltalik vaji...

Besh yil mobaynida Bolalar uyida xat-savod chiqarib, tarbiya topgan Abdushukur 1925-yili Farg'ona shahridagi pedagogika texnikumiga yo'l oladi.

U mavjud tizim doirasidagi ishlarni tanqid ostiga olishda ham ancha o'tkir shaxs edi. Bu borada uning 1927-1928-yillarda texnikum talabasi sifatida, ayniqsa, "Shimpanze" va "Ko'rkalamush" kabi yashirin nashrlar bilan bog'liq faoliyati g'oyat ahamiyatlidir. Bu nomlar hazilomuz ko'rinsa-da, ular orqali bildirilgan fikr-g'oyalar o'ta jiddiy, keskir va keskin edi. Ushbu nashrlar orqali Abdushukur Hakimov jamiyatdagi kamchiliklar, tengsizliklar, mafkuraviy to'ra vonliklarni nishonga oladi va, tabiiyki, mana shu jur'ati-yu jasorati alaloqibat o'zini nishonga tutib berishiga sabab bo'ladi.

Keyinchalik o'shanday chiqishlaridan birida aytadi: "Andijonda partiya tashkilotlari o'qituvchilarga nisbatan yomon munosabatda, eng yaxshi o'qituvchilardan Hasanxon va Husanxon Niyozovlarni qamoqqa olishdi. GPU organi xodimlari noyob va qimmatli kitoblarni tortib olishgan. Hozirgi vaqtda o'ta kuchli tarzda xavotirdamanki, tashkilotimiz a'zolari orasida sobiq ittihadchilar ko'pdan ko'pki, agar ular ham qamoqqa olinsa, u holda ma'rifat ishiga kuchli zarba berilishi mumkin".

Oliy ma'lumotli bo'lish o'sha davr uchun katta yutuq sanalgan bo'lsa, buning ma'naviy mas'uliyati ham yuqori edi. 1929-yili Abdushukur Hakimov texnikumni muvaffaqiyatli tamomlab, Andijon shahrida ona tili va adabiyoti o'qituvchisi sifatida ish boshlaydi. 1930-yili 4-son maktabga direktor etib tayinlanishi, so'ngra 1936-yilda 30-son maktabga rahbar sifatida yo'llanishi qahramonimizga bo'lgan ishonch, uning kasbiga sadoqat va salohiyatining amal-dagi tasdig'i edi.

Abdushukur Hakimovning faoliyati keng jamoatchilik ishi bilan ham uzviy bog'liq kechgani kuzatamiz. U mahalliy ma'rifatchilar uyushmasini boshqaradi, ijtimoiy tadbirlarda faol qatnashadi. Shularning o'ziyoq uning shaxsiy tashabbusiga, yetakchilik qobiliyatiga ega, aholining ishonchini qozongan shaxs bo'lganidan dalolat beradi. Biroq...

Ko'rmaysizmi, Abdushukur Hakimovning Fayzulla Xo'jayev shaxsiyatiga bo'lgan hurmati, uning portreti va byustini maktabdan olib tashlashga qarshi chiqqani, o'zi direktorlik qilgan 30-son maktabga Stalin ismini berishdan bosh tortgan – barchasi tergov materiallarida qahramonimiz gardaniga "ayb" sifatida ilinadi.

1937-yilning 5-oktyabrda Abdushukur Hakimov hibsga olinadi hamda 13-noyabr kuni "aksilinqilobiy faoliyat"da ayblanib, u ham akasidek 10 yil muddatga mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilinadi. Ammo akasidan farqli o'laroq, uning keyingi taqdiri haqida aniq ma'lumot yo'q.

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON

QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Yahyo Xo'jayev – 1905-yili Buxoro shahri Dilkushod guzarida tug'ilgan. U Fayzulla Xo'jayev va Ota Xo'jayevning jiyani bo'lib, ularning bevosita tarbiyasini olgan, yoshligidan milliy ravnaq g'oyasi ta'sirida shakllangan. 1924-yili "Milliy istiqol" aksilinqilobiy tashkiloti Markaziy qo'mitasining a'zosi Ibod Xo'jayev targ'iboti orqali Yahyo Xo'jayev ham tashkilot a'zolariga qabul qilinadi. U amakilarining ko'magi bilan 1927-yili o'qish uchun Moskvaga yuboriladi.

Fayzulla Xo'jayev hibsga olinishi munosabati bilan uning hammaslarklari, jumladan, Yahyo Xo'jayev ham 1937-yilning 7-avgustida hibsga olinadi. O'shanda u "O'zbeksavdo" idorasiga qarashli 26-do'kon mudiri vazifasida ishlardi.

Yahyo Xo'jayev 1937-yil avgustda Rahmon Alimovning uyida mag'lubiatchilik ruhida targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 1937-yil 17-noyabrda 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Mahkum jazoni Yaroslavlsk oblasti Uglich shahridagi Volga lagerida o'tagan. 1940-yil 28-yanvarda unga nisbatan jinoyat ishi qayta ko'rib chiqiladi va hukm o'z kuchida qoldiriladi. Oradan ancha vaqt o'tib, ya'ni 1957-yil 18-martda Buxoro oblasti sudi Yahyo Xo'jayevni reabilitatsiya qilgan.

Sulaymonxo'ja Ubaydullaxo'jayev – 1874-yili 19-aprelda Andijon shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1929-yil aksilinqilobiy tashkilot "Milliy ittihad"ning a'zosi sifatida sudlanib, 6 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Jazoni Kem shahrida o'tagan.

1933-yili qamoqdan qaytib kelgach, aksilinqilobiy millatchi "Milliy ittihad" tashkiloti bilan mustahkam aloqada bo'lib, partiya va sovet organlari tadbirlariga qarshi aksilinqilobiy faoliyat ko'rsatgan. Shundan so'ng qayta hibsga olinadi. Tintuv chog'ida xonadonidan 72 ta diniy kitob topilgani arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Shuningdek, uning anketasida inqilobga qadar qorixona, madrasada o'qib arab, fors tillarini mukammal o'rgangani, o'zi ham jadid maktabida yoshlarga ta'lim bergani ko'rsatilgan.

1937-yil 18-sentyabrda Sulaymonxo'ja Ubaydullaxo'jayevning ishi O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "Uchligi"da ko'rib chiqish uchun yuborilgan. "Uchlik"ning 1937-yil 9-oktyabrdragi yig'ilishida Sulaymonxo'ja Ubaydullaxo'jayev otuvga hukm qilingan. Hukm 30-oktyabrda ijro etilgan. U 1963-yil 13-iyulda reabilitatsiya qilingan.

Davlatnazar Husanboyev – 1901-yili Xiva shahrida tug'ilgan. Otasi Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri bo'lgan. Akasi Said Husanboyev, ukasi Abdulla hoji 1935–1937-yillarda surgun qilingan.


U doimiy ravishda aksilinqilobiy xarakterdagi fikrlarni tarqatayotganlikda ayblanib, 1937-yil 1-oktyabrda tergovga jalb qilingan. Tergov hujjatlarida "Siz "Yosh buxoroliklar" nomli aksilinqilobiy tashkilotga mansubmisiz?" degan savol berilgan. Unga Husanboyev Davlatnazar shunday javob qilgan: "1916-1917-yillarda men Xiva shahridagi jadidlar maktabida o'qiganman. Maktab Islomxo'ja tomonidan ochilgan. Maktabda maxsus o'qituvchilar, jumladan, tatar millatiga mansub Muxiarbek ismli pedagog ham dars bergan. Maktabda jadidlar tomonidan ochilgan yashirin guruh bo'lardi. Biroz vaqt o'tgach, bu guruh "Yosh xivaliklar" deya atalishini bildim. Chunki shu maktabda yaxshi o'qiganim uchun ulardan "Aprin" nomli faxriy yorliq olganman".

1937-yil 4-oktyabrdragi ayblov xulosa-sida 1901-yili tug'ilgan Davlatnazar Husanboyev Qo'shko'prikda yashayotgani, Sovet Ittifoqi hukumatining siyosatiga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblanib, 1937-yil 14-oktyabrda otuvga hukm qilingan. Jazo o'sha kuni ijro etilgan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, u 1989-yil 5-iyulda reabilitatsiya qilingan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).



“Avvalo, millatning manfaati uchun harakat qilmagan odam oxirat saodatiga erisha olmaydi!

Abdurauf FITRAT

”



SUD ZALIDAN

“QABR”NING 23 MILLIONLIK JABRI

“Samarqand shahrida ilk marotaba, 7 yoshdan 70 yoshgacha, o'tkir syujetli “Qabr” filmiga kinokasting! Shoshiling, imkoniyatni qo'ldan boy bermang! Manzil: Pastdarg'om tumani madaniyat bo'limi zali”.

Ushbu e'lon katta-kichikni birdek qiziqtirib, shoshirib qo'ydi. Viloyatlarda bunaqa kasting-pastinglar hadeganda bo'lavermaydi-da! Qolaversa, film rejissyori Ahmad Qiyomsho poytaxtdan kelgan. Qo'lida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Yangiyo'l shahar kengashi yosh rejissyorlar to'garagi rahbari, degan guvohnomasi ham bor.

Hech qancha vaqt o'tmay, madaniyat bo'limining eshigi yopilmay qoldi. Ayniqsa, filmning keng qamrovligi, bir emas besh nafar bosh qahramon va katta-kichik yoshdagi yordamchi qahramonlar obrazidan iboratligi ko'pchilikda tanlovdan o'tishga ishonch uyg'otib, orzumand ko'ngillarga shuhrat alangasini soldi.

HAR TOMONLAMA MUNOSIB NOMZOD

– O, siz bosh qahramonimga juda o'xshaysiz. Sizdan mos variant ko'rmadim! – dedi Ahmad Qiyomsho o'zini Shahrulz Imomov deb tanishtirgan, baland bo'lyi, 26 yoshli nomzodni olqishlagan kabi qarsak chalib. – Faqat 1 ming 200 dollar to'lovi bor. Kasting talabi shunday: har kim o'z roli uchun ketadigan sarf-xarajetni o'zi qoplaydi. Bosh qahramon bo'laman deganlar juda ko'p, xarajatiga ham tayyor, faqat ularning qiyofasi mos kelmayapti. Kinoda mashhur aktyorlar ham o'ynaydi, tanilib ketasiz. Vaqt qisqa, kechgacha o'ylab ko'ring.

Yigit uchun shart sodda ko'rindi, “shu bilan “yulduz” bo'lib ketsam-a”, degan o'yda kerakli pulni keltirib berdi. Rejissyor bu bilan cheklanmadi, Shahrulza quyuc va'da berib, syomka uchun hashamatli uy topishni ham yuklab yubordi.

Bu yoqda Botir G'afforov ham kechadan beri uchib yuribdi. Yotsa ham, tursa ham xayolida kinoyulduzlik. Kimsan Yodgor Sa'diyev bilan birga rol o'ynarmish. Rolini birov ilib ketmasligi uchun 900 dollarni to'lab qo'ydi. Hademay poytaxtga ketishadi...

– Omadim chopdi, ikkinchi bosh qahramonga mendan ko'ra mos nomzod topilmadi, onajon, – deya qayta-qayta validasini quchardi u.



YOSH IQTIDORLARNI IZLAB...

7-sinf o'quvchisi Halimjon aktyor bo'lishni orzu qiladi. Maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar usiz o'tmaydi.

“Qabr”ga ishtirokchilar saralanayotganini eshitgan kuni o'zini qo'yarga joy topolmadi. Dars nihoyasiga yetgach, amakivachchasi Anvar bilan kastingga yo'l oldi.

– Aslida aynan sizga o'xshash yosh talantlarni kashf etish uchun kelganman bu yerga, – dedi ularni xursand kutib olgan rejissyor. – Qishloqlarda iqtidorlilar ko'p, ular mehnat va musaffo tabiat bilan uyg'un ulg'ayishgani uchun rollarni tabiiy ijro etish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Siz ana shunday yoshlardansiz, ko'zingizda katta iqtidor uchqunlarini ko'ryapman, imkonim bo'lganida bepul qabul qilardim. Ammo bozor iqtisodi bunga yo'l bermaydi. Sizbop ikki o'rin qolgan-u, to'lov masalasi bor-da...

– Ota-onam yaqinda Rossiyada ishlab keldi, pullari ko'p, men uchun ayamaydilar, – dedi Halimjon “meni tanlang, iltimos”, degandek yalingannamo terilib.

– Ko'p, seni Yodgor Sa'diyevning nabirasi rolga olaman, faqat ro'yxatga olishim uchun dastlab 300 ming so'm, keyin syomka uchun 150 dollar berasan, – dedi Ahmad.

So'ng Anvarga o'girildi:

– Sen 50 dollar bersang, buni o'rtog'i ro'lida o'ynaysan.

Halimjonning otasi o'g'lining ra'yini qaytarmadi, faqat ish boshidagi kishini o'z ko'zi bilan ko'rib, ishonch hosil qilishi kerakligini aytdi. Taklifni eshitgach, Ahmad Halimjonga ergashib ularnikiga keldi. Otaga

guvohnomasini ko'rsatdi, ma'lumotlar berdi. Chippa-chin ishongan ota unga 300 ming so'mni tutqazdi. Shu kuni Anvar ham aytilgan mablag'ni keltirib berdi.

Uch-to'rt kun o'tib Ahmad Halimjonni chaqirib, 150 dollarni to'lashni tezlatishini, aks holda o'rni boshqa talabgorni olishini eslatdi. Zum o'tmay bu talab ham bajarildi...

8 KUNDA 23 MILLION SO'M

Xullas “Qabr” ko'pchilikni o'ziga tortdi. 8 kunlik kastingda 30 nafar havasmand qatnashib, ulardan 13 nafari, to'g'rirog'i, “soqqa” berganlarning deyarli barchasi tanlab olindi. To'lov miqdori ham rollardagi mavqelariga ko'ra turlicha bo'ldi. Jami 23 million 619 ming 814 so'm mablag' rejissyorga qo'shqo'llab topshirildi!

Nihoyat, intiqib kutilgan kun keldi. Jamoa Toshkent sari otlandi. Yo'l xarajatlari ham “bo'lg'usi yulduz” hisobidan qoplandi. Poytaxti azimga kelgach, bir restoranda atigi 3-4 daqiqalik syomka bo'ldi. Yodgor Sa'diyev kutilmaganda gastroлга ketib qolgan ekan, boshqa aktyor bilan suratga tushishdi. Filmning qolgan sahnalari Samarqandning turli go'shalari – ko'ngilochar joylarda, kollej oldida, Botir G'afforovning tog'asiga tegishli hashamatli hovlida, Juma shahridagi biylardxonada olindi...

XORIY UCHUN 4 MING 800 DOLLAR

Ahmad Qiyomsho baquvvat sarmoyador, bosh rol ijrochisi Shahrulz Imomovga yana qo'ng'iroq qilib, yoniga tez yetib kelishini, zo'r yangilik borligini aytdi.

– Hozirgina rahbariyat bilan gaplashdim, filmning davomini xorijda olinglar, degan

topshiriq bo'ldi, to'rtta davlatga ketamiz, – dedi Ahmad Shahrulzni quchoq ochib kutib olarkan. – Shunga 4 ming 800 AQSH dollari to'lashingiz kerak bo'lyapti. Faqat sizni olib ketamiz, qolgan barcha lavhalarini olib bo'ldik. To'lov indindan kechikmasligi kerak. Keyingi oy uchib ketamiz.

Ahmadning yonidan “xo'p bo'ladi” deb chiqqan Shahrulzni bu gal gumonlar chulg'ay boshladi: “Bir rol uchun 6 000 dollar! O'zi shu paytgacha qilinyotgan ishlar ham rostga o'xshamayapti, taniqli aktyorlarning qorasini ko'rmadik”.

Bunday shubhalar boshqa ishtirokchilarning ham ko'nglidan o'tayotgan edi. Farzandlaridan syomka jarayoni haqida eshitgan ota-onalar firibgarning tuzog'iga tushganini anglagan, tegishli huquqni muhofaza qilish idorasiga murojaat qilib ham ulgurgan edi.

Shahrulz ham aldanganini, firibgarlik qurboni bo'lganini sezdi-yu, holat yuzasidan tegishli idoraga arz qildi. O'z navbatida zarur choralar ko'rilib, Ahmad Shahrulzdan pulni olayotgan vaqtda guvohlar ishtirokida qo'lga olindi.

QANDAY JAZO BERILDI?

Sud Ahmad Qiyomshoning harakatlarini Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi “b” bandiga ko'ra, firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni takroran qo'lga kiritish deb topildi. Unga aybiga to'liq iqrorligi va pushaymonligi, oilaviy sharoiti, jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zarar to'liq bartaraf qilinganini hisobga olib, har oylik ish haqidagi 20 foiz miqdorida davlat daromadiga ushlab qolish sharti bilan 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinladi.

Qonunbuzar-ku, o'ziga yarasha “ulush”ini oldi, tavbasiga tayanib, ko'zi ochilgan bo'lsa ajabmas. Lekin oson yo'l bilan nom qozonish, “puch yulduzlik” shtammiga chalingan jigar-so'xtalar-chi? Ular ham tayinli bir xulosaga kelishdimikan?

Nurxon ELMIRZAYEVA,
jurnalist

Jinoyat ishlari bo'yicha Pastdarg'om tuman sudida ko'rilgan jinoyat ishi materiallari asosida yozildi.

TILBILIM

SABZ – YASHIL, SABZIRANG-CHI?

“Sabz” so'zi fors tilidan kirib kelgan o'zlashma so'z bo'lib, uning o'zigidan yasalgan bir qancha so'zlar o'zbek tilida faol ishlatiladi. Masalan: sabzi, sabza, sabzirang, sabzavot, sabz urmoq kabi so'zlar tilimizda keng qo'llaniladi.



“Sabz” – asosan yashil, yashil rangli, g'o'r, yangi, yosh ma'nolarini bildiradi. Ba'zi hollarda bu so'z bug'doyrang yoki qoramag'iz tusni ifodalashda ham ishlatilgan. Adabiy manbalarda “sabzak” shaklida ham uchraydi. Alisher Navoiy “Xamsa”sida shunday keltiriladi:
O'zi sabz-u tabassumi shakarin,
Xushdurur sabz gar erur shirin.

(Hayrat-ul abror, 46-1)

“Sabzi” – sabzavotlar turiga mansub mahsulot. Tilimizda bu so'z oshko'k ma'nosida ham ishlatiladi. “Sabzavot” – “sabza” so'zining ko'plik shakli bo'lib, poliz va rezavor ekinlar, ularning ovqatga ishlatiladigan qismi ma'nosini bildiradi.

“Sabzirang” esa bugungi o'zbek tilida to'q sariq rang ma'nosida tushuniladi. Aslida esa bu so'z tarixiy jihatdan sabzorang, sabzrang shaklida kelib, yashil rangni anglatgan. Bunday ifodani mumtoz adabiyotda ham uchratish mumkin:

Yana birning maqomi xazrorang,
To'ni axzar, uzori sabzorang.

(Sab'ai Sayyor, 912)

Bu misrada uch so'z – “xazrorang”, “axzar” va “sabzorang” – barchasi yashil rang sinonimi sifatida qo'llangan. Ammo bugungi kunda “sabzirang” deyilganida, sabzining tashqi ko'rinishi, ya'ni to'q sariq rang nazarda tutiladi. Demak, so'zda semantik siljish ro'y bergan.

Semantik siljish degani bu – so'zning asl ma'nosi vaqt o'tishi bilan o'zgarib, boshqa ma'no kasb etishidir. “Sabzirang” so'zida ham aynan shunday: dastlab, u yashil rangni bildirgan. Keyinchalik xalq tilida sabzavot – sabzi po'stlog'i rangi bilan bog'lanib, to'q sariq rang sifatida ishlatila boshlagan. Bu kabi so'zlarni o'zbek tilida ko'plab uchratish mumkin.

Iroda RAHMONTALIYEVA

JAHON AYVONIDA

YAMANDA OCHARCHILIK

BMTning gumanitar ishlar bo'yicha rahbari ma'lum qilishicha, Yamanda 17 milliondan ortiq odam ochlikdan aziyat chekmoqda. Jumladan, besh yoshgacha bo'lgan milliondan ziyod bola “hayot uchun xavfli” darajadagi ochlik holatida qolgan.



Tom Fletcherning BMT Xavfsizlik Kengashiga xabar berishicha, fuqarolar urushi girdobida qolgan arab dunyosining eng kambag'al davlatidagi oziq-ovqat xavfsizligi inqirozi 2023-yil oxiridan beri tobora kuchayib bormoqda.

Uning ogohlantirishicha, sentyabr oyiga kelib ochlikdan aziyat chekayotganlar soni 18 milliondan oshishi mumkin hamda kelgusi yil boshiga borib hayot uchun xavfli darajadagi ochlik holatidagi bolalar soni 1, 2 millionga yetishi mumkin. Bu esa “ko'pchilikning doimiy jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolish xavfini oshiradi”.

PREZIDENT BILAN INTERVYU

Amerikalik teleboshlovchi Taker Karlson Eron prezidenti Mas'ud Pizishkiyondan onlayn intervyu oldi. Bu haqda “Reuters” xabar bermoqda.



Karlson Eron prezidentidan “Mamlakat yadro dasturidan voz kechishga tayyormi?” deb so'radi. Pizishkiyon esa Eronda hech qachon yadro quroli ishlab chiqarish istagi bo'lmagani, uranni boyitish haqidagi gap

Binyamin Netanyahu o'yab topgan uydirma ekanini aytdi.

Pizishkiyon Eron AQSH bilan muzokaraga doim tayyor ekani, lekin Netanyahu bu diplomatiyani urush bilan yakson qilayotganini ta'kidlagan. Eron prezidentiga ko'ra, aynan Netanyahu mintaqani beqarorlashtirmoqda.

REPRESSIYANI

TO'XTATISHGA CHAQIRUV

BMT Bosh assambleyasi Afg'onistondagi gumanitar, iqtisodiy va inson huquqlari bilan bog'liq vaziyat yomonlashayotganidan chuqur xavotir bildirilgan rezolyutsiyani qabul qildi.



Hujjat “Tolibon” harakatini repressiv siyosatni to'xtatishga va inklyuziv boshqaruvni ta'minlashga chaqiradi, deyiladi BMT yangiliklar xizmati saytida.

Rezolyutsiyani 116 davlat, jumladan, O'zbekiston ham qo'llab-quvvatladi, ikki davlat – Isroil va AQSH qarshi chiqdi, yana 12 davlat, jumladan, Hindiston, Eron, Xitoy va Rossiya betaraf qoldi.

Rezolyutsiyada Afg'onistondagi og'ir iqtisodiy vaziyatga urg'u berilib, a'zo davlatlar va donorlarga murojaatan mamlakatga insonparvarlik yordami hajmini oshirish so'ralgan.

OQ UYNING

TOSHKENTLIK MULOZIMI

Oq uyning kadrlar bo'yicha direktori Serxio Gor O'zbekistonda tug'ilgani haqida xabarlar tarqaldi.



Qayd etilishicha, 38 yoshli Gor shu paytgacha o'zining kelib chiqishini oshkor qilmagan. Shu sababdan tug'ilgan joyi

masalasi ommaviy axborot vositalarida mish-mishlarga sabab bo'lgan.

Jumladan, “The Washington Post” gazetasining ushbu amaldorga bag'ishlangan maqolasida uning Maltadan kelgan muhojir ekani aytilgan. Donald Tramp ma'muriyati xodimining kelib chiqishi Maltaga aloqador ekani “The New York Post”ning bir maqolasida ham yana tilga olingan. Unda Gor maxfiy ma'lumotlarga ruxsat olish uchun zarur bo'lgan tarjimai holi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagani aytiladi. Gorning tanishlari “The Dispatch” nashriga uning sobiq Ittifoq hududida tug'ilganini oshkor qilishdi.

BIR MILLION MIGRANT

Rossiya Hindistondan bir million mehnat muhojiri kelishini kutmoqda. Bu haqda Ural savdo-sanoat palatasi rahbari Andrey Besedin ma'lum qildi, deya xabar bermoqda “Ura.ru” nashri.



Xorijiy mutaxassislar boradigan hududlar orasida Sverdlovsk viloyati ham ko'rsatilgan. Besedinning aniqlik kiritishicha, mintaqaa sanoatida ishchi kuchi yetishmasligi muammosini hal qilish aynan Hindiston, Shri Lanka va Shimoliy Koreyadan muhojirlarni jalb qilish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

ANOMAL ISSIQ HALOKATI

23-iyundan 2-iyulgacha bo'lgan davrda Yevropani qamrab olgan kuchli issiqlik to'liqi tufayli mintaqaning 12 shahrida taxminan 2,3 ming aholi vafot etgan bo'lishi mumkin.

Bu haqda London Imperial kolleji hamda London gigiyena va tropik tibbiyot maktabi olimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadqiqot natijalarida ma'lum qilingan.



Jadid

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 169

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 496

Lotin yozuvida – 11 673

Media kuzatuvchilar – 74 771

Buyurtma: G – 740.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 23:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz